Faoliyatining umumiy maqsadga erishish yo'lida psixologik jipsiligi va umumiy foydali motivlar bilan gavsiflanuvchi guruhdir.

Jamoaning muhim belgisi – maqsad va vazifalarning ijtimoiy ahamiyatga ega ekanligidir. Agar bu belgi bo'lmasa, guruh jamoa deb atalishi mumkin emas.

XULOSA

- ✘ Kuchli va kuchsiz ko`rsatkichlar mazmun jihatdan turlicha bo`lishi mumkin, lekin ulardagi umumiy narsa-natija, ya`ni sherik tanlashdir.
- ✘ Sotsiometrik tadqiqotdan olingan malumotlar asosiy sotsiogrammalar tuziladi. Agar guruh a`zolari soni 20 tadan ko`p bo`lsa, sotsiometrik matritsa tuzish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Shuningdek, natijalarni grafik ravishda, zanjir, uchburchak yoki yulduzcha shaklida ham ifodalash mumkin. Shunday qilib, sotsiometriya metodi ob`ektiv va aniq malumotlar, ya`ni shaxsning guruh yoki jamoadagi real holatini aks ettiruvchi ma`lumotlar olishga imkon beradi va amaliy maqsadlarda foydalanishi mumkin.

ASOSIY ADABIYOTLAR:

- ✘ 1. V. M. Karimova Ijtimoiy psixologiya asoslari. T: O`qituvchi nashriyoti 1994.
- ✘ 2. Andreeva G. M. Aktualnie problemi sotsialnoy psixologii. M. Iz. MGU. 1998
- ✘ 3. Sotsialnaya psixologiya: Uchebnoe posobie dlya studentov ped institutov. (A. V. Petrovskiy, V. V. Abramenkova, M. ye. Zelenova i dr. pod. red A. V. Petrovskogo M. Prosveshenie, 1987
- ✘ 4. Sotsialnaya psixologiya: Istoriya, teoriya, empiricheskie isledovaniya. Por red ye. S. Kuzmina, V. ye. Semenova L. G. U. 1979

Sotsial munosabatlar



SOTSIAL MUNOSABATLAR

- Sotsiologiya fanining tizimida sotsial munosabatlar juda muhim o'rin kasb etadi. Chunki u orqali jamiyat a'zolari bir-birlari bilan ma'lum bir muomala va ijtimoiy hamkorlikka intiladilar. Sotsiologiyadagi bu maxsus soha o'zining o'ta dolzarbligi va muhimligi bilan boshqa muammo va masalalardan ajralib tursada, u hali mutaxassislar tomonidan to'liq ilmiy va sistemali ravishda o'rganilmagan va ilmiy adabiyotlarda etarli darajada yoritilmagan. Bu salbiy yo'lning asosiy sabablaridan birinchisi, sobiq Ittifoq falsafiy — sotsiologik adabiyotida bu masalani bir yoqlama talqin qilinishi bo'lsa. Ikkinchisi ilg'or g'arb adabiyotining ushbu sohasi bo'yicha tadqiqotlarining to'liq ma'lumotlarini bizda yo'qligidir.



Sotsial munosabatlar tushunchasi

- Sotsial munosabatlar tushunchasini o'zi hali sotsiologiya fanida aniq va ilmiy ta'rifini hozircha topa olgani yo'q. Avvalambor shuni ta'kidlash zarurki, sotsial munosabatlar ko'pincha ijtimoiy munosabatlar tushunchasi bilan tenglashtiriladi yoki sotsial munosabatlar ijtimoiy munosabatlarning bir xususiy ko'rinishi deb talqin qilinadi. Mavjud adabiyotlarni chuqurroq tahlil qilinadigan bo'lsa shunday xulosaga kelish mumkinki, yuqorida ko'rsatilgan fikrlarda qimmatli asos borligini bilish mumkin.





- ***sotsial munosabatlar tushunchasi ko'pgina adabiyotlarda 2 xil darajada: keng ma'noda va tor ma'noda talqin qilingan, ushbu muammoni keng ma'noda tushinish — bu sotsial munosabatlarni butun bir ijtimoiy munosabatlar tizimi bilan tenglashtirishdir, va ular orasidagi farqlarga e'tibor bermaslik bilan bog'liqdir.***



- **Tor ma'noda sotsial munosabatlar ijtimoiy munosabatlarning bir muhim elementi va turi deb interpretatsiya qilinadi. Sotsial munosabatlar keng ma'noda quyidagicha ta'rif bilan belgilangan.**
- **Sotsial munosabatlar bu tabiat hodisalaridan o'laroq bo'lib, unda ijtimoiy munosabatlarning butun bir tizimi mujassamlashgandir.**



- **Keyinchalik sotsial munosabatlarni ham keng, ham tor ma'noda talqin qilish jarayonlari takomillashib bordi. Albatga yuqorida keltirilgan ta'riflar bu munosabatlarni materializm ta'limoti metodologiyasi asosida shakllangan ko'rinishidir. Sotsial munosabatlarga berilgan ta'riflar bir-birlaridan shakl jihatidan farqlansalar ham lekin mazmun jihatidan bir-birlaridan deyarli farqlari yo'q, deb ta'kidlansa mubolag'a bo'lmaydi. Chunki ularning asosini materialistik dialektika metodologiyasi tashkil qiladi. Shuning uchun sobiq Ittifoq adabiyotida sotsial munosabatlar muammosi tarixiy materializmning qonun va kategoriyalaridan kelib chiqib yoritilgan haqiqiy sotsiologik muammo sifatida sotsial munosabatlar tahlil qilinmagan. Shuning uchun sotsiologiya mustaqil fan sifatida tan olinmay unga faqat sotsial muammolarni, falsafiy tadqiqotlarining xulosalarini o'zining emperik tadqiqotlari bilan asoslash vazifalari yuklatilgan edi.**



- **Jumladan sotsial munosabatlar masalalari g'arb mutaffakirlari tomonidan ham o'z metod va metodologiyalari jihatidan keng tadqiq qilingan. O. Kont o'zining pozitivistik ta'limotida sotsial munosabatlar muammolarini xuddi biologik hodisalar metodi bilan o'rganish prinsiplarini keng targ'ib qiladi. Pozitivistik — naturalistik yo'nalishning ashaddiy raqibi bo'lgan fenomenologik sotsiologiya sotsial hayot va sotsial munosabatlarni bunday uslubda talqin qilganligi uchun O. Kont va uning izdoshlarini keskin tanqid qiladi. Naturalizmning bu jiddiy kamchilik va jiddiy hatoliklarini bartaraf etish uchun fenomenologik sotsiologiya inson ongining faolligi muammo echimining asosiy omili deb isbotlashga intiladi. Bu yo'nalish vakillarning fikricha faqatgina insonning tafakkuri tufayli sotsial voqelikni va sotsial munosabatlarni, konstruksiyalash (yaratish) mumkin bo'ladi. Chunki sotsial real va sotsial munosabatlar insonning interpretatsiy faoliyat orqaligina vujudga keladi. Fenomenologik sotsiologiyaning taniqli vakillaridai biri D. Sylverman yuqoridagi g'oyalarning asoslash uchun pozitivistik sotsiologiya nazariyasini tanqid qiladi.**



O. Kont



- Albatta, bu ijtimoiy fikrlar vujudga kelgandan beri ancha vaqtlar o'tdi, yangi jug'rofiy — siyosiy makonlar paydo bo'ldilar eng muhimi esa totalitar tuzumi barham topib yangi davlatlar vujudga kelishdi, yangi jamiyatda bir partiyaviylik hukumdorligi emirildi va mustaqil suveren davlatlar bo'ldilar. Endi esa jamiyatdagi jarayonlarni, jumladan sotsial munosabatlar muammolarini keng plyuralistik prinsip orqali tadqiq qilish davri keldi.



- Bu prinsip orqali, sotsial munosabatlarni muammo va vazifalarini turlicha tahlil qilish imkoniyati tugʻiladi. Ushbu ijobiy imkoniyatlarning hosili sifatida respublikamizda sotsial munosabatlar muammolari jahon ilmiy tafakkurining har hil yoʻnalishlarini natijalari asosida tadqiq qilinayotganligi ajratib koʻrsatish mumkin.



Xulosa

- Xulosa qilib aytganda sotsial munosabatlar muammosini yangi, yuqori ilmiy darajada tadqiq qilish imkoniyatlari vujudga keldi. Endi bu muammoni konkret sotsiologik tadqiqot bilan o'rganish joiz. Chunki sotsiologiya nafaqat bu muammoni, balki butun ijtimoiy hayot jarayonlarini keng qamrovda kompleks xarakterda va amaliy natijalar asosida chuqur tadqiqot qiladi.





Liderlik ko'nikmalari

Lider – xayolati talanti bilan zabt etilgan inson

XTV O'quvchi yoshlar bilan ishlash boshqarmasi

Lider kim o'zi?!



Liderlik darajalari

- Shaxs lideri
- Holat lideri
- Jamoa lideri



Liderlar va ularning shakllanishi



Omadli lider ko'nikmalari

- Boshlang'ich ko'nikmalar;
- Muloqot ko'nikmalari;
- Liderlarning shaxsiy xususiyatlari;



Boshlang'ich ko'nikmalar

- Kelajakni ko'rish;
- Maqsad qo'yish;
- Ko'nikuvchanlik;
- Psixologik chidam;



Muloqot ko'nikmalari;

- Ishontirolish qobilyati;
- Muloqatga tez kirishuvchi;
- Noverbal muloqot ko'nikmalari;
- Boshqalarni tinglay olish;



Liderlarning shaxsiy xususiyatlari

- O'ziga bo'lgan ishonch;
- Faollik;
- Nostandart fikrlash; *
- Shaxsiy etuklik;



Liderlik sifatlarini shakllantish

- O'zingizga ko'proq ma'suliyatni oling;
- Boshqalarni tinglashni o'rganing;
- Odamlarni ilhomlantiring;
- O'rganishdan to'xtamang;
- Atrofingizdagilarga e'tiborliroq bo'ling;

**E'tiboringiz uchun
rahmat!!!**



Raxbar psixologiyasi



Raxbar psixologiyasi



Prezidentimiz Islom Karimov o'zining qator asarlari, nutq va ma'ruzalarida, turli chiqishlarida mustaqil, huquqiy, demokratik davlat barpo etish, jamiyat hayotining barcha sohalarini erkinlashtirish, islohotlarni jadallashtirishda rahbar kadrlarning roli muhim ekanligini doimo ta'kidlab, kadrlar masalasi bugungi kunning ustuvor yo'nalishi deb yo'llanma berib kelmoqda.

Darhaqiqat, har qanday davr va tizimda tuzgan rejalarimiz, qabul qilgan qaror va qonunlarimizning ro'yobga chiqishi, taraqqiyotimiz odimlari, qo'yingki, kishilar kayfiyatiga bo'qliq barcha hayotiy masalalarning ahvoli u yoki bu sohada kim rahbar bo'lib ishlayotganligiga, rahbarlik faoliyatiga bo'qliqdir

Raxbar psixologiyasi

Korxonada, tashkilot, xo'jalik yoki muassasa, hokimlik va uning bo'limlariga fidoyi, ishchan, tajribali, talabchan, ayni paytda kishilarga yamxo'r, zamon talablarini chuqur his eta oladigan, ko'ngli pok rahbarga odamlarning ishonchi barqaror bo'ladi, aks holda...

Rahbarlarni tanlash, ularni joy-joyiga qo'yish hozirgi kunda eng dolzarb masala. Aytish mumkinki, masalalarning masalasi. Chunki biz ancha murakkab va tashvishli davrda, bir tuzumdan ikkinchi tuzumga o'tish davrida yashamoqdamiz. Zero, xalqning notinchligi, ular o'rtasidagi nizolar, vayronagarchiliklar va davlatlar o'rtasida urushlar kelib chiqishi, begunoh kishilarning qoni to'kilishi, xalqning ahvoli nochor bo'lib qolishiga, tarixda ko'p hollarda sotqin, vijdonsiz rahbarlar, millatchi guruhbozlar sababchi bo'lganligini insoniyat hech qachon unutmasligi kerak. Xullas, insoniyat sivilizatsiyasining hamma davrlarida malakali rahbarlar va mutaxassislar barcha muammolarni hal qilishda muhim o'rin tutadi va shunday bo'lib qolaveradi.

Raxbar psixologiyasi



«Biz oldimizga qanday muhim vazifa qo'ymaylik, — deydi prezidentimiz. — Qanday hayotiy muammoni echish zarurati tu'yilmasin, gap oxir-oqibat, yuqorida aytganimizdek, baribir kadrlarga va yana kadrlarga borib taqalaveradi» Binobarin, biz oldimizga demokratik jamiyat barpo etishdek buyuk vazifani aniq maqsad qilib qo'yganmiz. Bu deganimiz jamiyatni boshqarishda har bir rahbarning o'z o'rni va huquqi bo'lsin, u yoki bu masalalalar hal bo'layotganida uning ham o'z ovozi, o'z fikri bo'lsin, aytilgan taklif va mulohazalarga asoslanib bergan fikri, o'rinli bo'lsa, albatta, inobatga olinmo'yi lozim. Buning uchun har bir korxonada so'ylom psixologik muhit yaratilishi darkor. Uni yaratish esa, birinchi navbatda, rahbarga, uning ma'naviy qiyofasiga, zamon talablarini necho'yli ziyraklik bilan ongli tushunishiga, haqqo'yligiga, adolatparvarligiga bo'yliqdir.

Raxbar psixologiyasi

Achinarli tomoni shundaki, ba'zi rahbarlar muhim masalalarni hal etishda, ayniqsa lavozimga biror shaxsni tayinlashda, men boshliqman, demak, mening aytganim-aytgan, deganim-degan bo'lishi shart, deb o'ylaydilar. Natijada u yoki bu lavozimga ba'zan ma'naviy noloyiq, siyosiy shakllanmagan kishi tayinlanib qoladi. Oqibatda mahalliychilik, oshna-o'aynichilik, tanish-bilishchilik kabi umum ishimizga nihoyatda putur etkazadigan illatlar ildiz otadi. Xuddi shunday sharoitda rahbar uchun ham, jamoa uchun ham noqulay psixologik vaziyat vujudga keladiki, buni tuzatish ancha murakkab jarayonga aylanadi.

Raxbar psixologiyasi



O'tgan yil «Xalq so'zi» gazetasida bir maqola e'lon qilindi. Unda respublikamizdagi ayrim tashkilot va idoralarda, xususan, respublikamizning nufuzli oliy o'quv yurtlaridan birida, xalq ta'limi tizimida, byudjet mablaʼlari talon-taroj qilinayotgani, talabalar stipendiyalari, o'qituvchilar maoshlari bankdan o'z vaqtida olinsa-da, ular nomuvofiq joylarga sarflanayotgani, bu odamlar kayfiyatiga o'ta salbiy ta'sir etishi, mehnat intizomining buzilishi, ayni cho'йда, ularda davlatga nisbatan hatto norozilik kayfiyati uy'otishi mumkinligi haqida mulohazalar bildirilgan⁷. Yuqoridagi kamchiliklar respublikamizning mutasaddi rahbarlari tomonidan o'rganilib tahlil etilganda, boshqaruv tizimining izdan chiqqani, jamoa bilan rahbar o'rtasida keskin va ziddiyatli psixologik munosabatlar vujudga kelgani aniqlangan. Fikrimizning dalili uchun qisqagina bayon keltiramiz

Raxbar psixologiyasi



Oliy o'quv yurtida turli xil talon-tarojlar oylab, yillab davom etib kelgan. Bu jihatlar o'qituvchi va studentlarning turli idoralarga yozgan ko'plab shikoyat xatlari asosida ochilgan. Agar ular shikoyat yozib, arzdod qilib turli idoralar eshigiga bosh urmaganda, kim biladi, bu oliy o'quv yurtidagi hamda xalq ta'limi tizimidagi bu bedodlik va adolatsizliklar rahbarlar tomonidan yana qancha davom ettirilar edi. Xo'sh, byudjet mablaylarini talon-taroj etayotgan, boshqacha aytganda, nopok rahbarlar tomonidan o'marilayotgan bo'lsa, rahbarning bu holatini qanday baholash mumkin.

Raxbar psixologiyasi



«Bugun Namangan viloyatida vujudga kelgan mana shunday vaziyatni tahlil qilar ekanmiz, — degan edi prezidentimiz I.A.Karimov xalq deputatlari Namangan viloyati kengashining navbatdan tashqari sessiyasida soʻzlagan nutqida, — yagona bir xulosaga keldikki, keyingi paytda viloyat hayotida, avvalo, uning rahbariyati faoliyatida mas'uliyatni butunlay unutilib qoʻyish kayfiyati paydo boʻlgan va bu holat barchamizni tashvishga solmasdan qoʻymaydi. Shu oʻrinda katta-kichik barcha rahbarlarga aytmoqchiman. Mehnatkash xalqimiz siz bilan bizga shunday mansab va martabalarni, etakchilikni ishonib topshirgan ekan, ayni vaqtda boʻynimizga juda katta mas'uliyat va javobgarlikni ham yuklagan rahbarlik lavozimi haqida, uning bugungi zamonda naqadar murakkab va oʻyirligi haqida soʻnggi vaqtlarda juda koʻp gapiradigan boʻlayapmiz»8 .

Raxbar psixologiyasi



«Lekin ming taassuflar bo'lsinki, bundan ko'pchilik, shu jumladan, yuqori mansablarda o'tirganlar ham kerakli xulosa chiqarishi joylarda sezilmaydi. Qo'shni viloyat, qo'shni tumanda o'zining mas'uliyatini yo'qotib qo'ygan, oyo'yi erdan uzilib qolgan, manmanlikka berilib, qo'pol bo'lsa ham aytishga majburman, havolanib ketgan shaxslarga nisbatan ko'rilyotgan qattiq choralarni xuddiki, o'zlariga tegishli emas, deb qabul qiladi, ulardan saboq chiqarmaydi.

Odamlar ko'rsin, eshitsin, bilsin, rahbarlar shundan xulosa chiqarsin, deb biz bu majlislarni televidenie orqali ochiq-oydin ko'rsatyapmiz. Barchamiz bir haqiqatni hech qachon unutmasligimizni istardim, mansab kursisida o'tirgan, hokimiyat nomidan ish yuritadigan ba'zi rahbarlar o'zining aqlga nomuvofiq ishlarini yashirishga qancha urinmasin, odamlar o'ziga nisbatan, jamoatchilikka nisbatan adolat buzilayotganini ko'rib, bunday rahbarlarning quyushqondan chiqib ketayotganini baribir sezadi, biladi»

Raxbar psixologiyasi



Qachonki, rahbarning yuragi ham, qo'li ham toza bo'lsa, ta'madan, yarazdan yiroq bo'lsa, uning tabiatida qat'iyatlik bilan vazminlik, talabchanlik bilan aql-zakovat uyğun bo'lsa, faqat shundagina u odamlarning ýam-tashvishini o'z qalb prizmasidan o'tkazishga qodir bo'ladi.

Shunday ekan, masalaning psixologik echimini oydinlashtirish uchun keng mushohada qilib ko'rishga to'ýri keladi. Ya'ni, u jamoada haqiqiy rahbar ruhiy ko'tarinki kayfiyat bilan ish boshlamoýi va yashamoýi lozim, odamlarga ma'naviy yaqin bo'lmoýi zarur. U hamisha jamoa a'zolarining quvonch va tashvishlari bilan yashashi kerak. Rahbar hayotining ko'pgina unutilmas lahzalari jamoa muhitida tarbiyalanadi, shakllanadi. Shu tarzda rahbarning eng yaxshi tashkilotchilik, tadbirkorlik fazilatlari shakllanib, mukammallashib boradi.

Raxbar psixologiyasi

Ikkinchi tomondan, jamoa hayotida yuz beradigan muhim voqealar va hodisalar esa yana shu jamoani boshqaradigan rahbar faoliyati bilan chambarchas boʻliq boʻladi. Jamoa va rahbar uyʻunligi shaxs hamda korxonaning manfaatlarining shunchaki mos kelishi emas. Bunday psixologik uyʻunlik rahbarning maʼlum kishilar guruhiga hech ikkilanmay «singib ketishi» yoki shu guruhdagi kishilarning rahbarga koʻr-koʻrona boʻysunishi natijasida yuzaga kelmaydi. Jamoa oldiga qoʻyilgan muhim maqsadlar rahbar uchun ham muhim ahamiyat kasb etgandagina ana shunday uyʻunlik yuzaga keladi. Biroq har qanday jamoa ham oʻziga xos dunyoqarash, qiziqish va moyilliklarga ega boʻlgan turlicha feʼl-atvordagi kishilar guruhidan tashkil topavermaydi. Har bir rahbar faoliyati davomida jamoa hayotiga baholi qudrat oʻz hissasini qoʻshib borsa va undan oʻzi uchun ham biror yangilik topa olsagina zamini mustahkam jamoa vujudga keladi

Raxbar psixologiyasi



Demak, rahbar shaxslarning ma'naviy dunyosi qanchalik yuqori bo'lsa, jamoa hayoti mazmunan shunchalik boy, qiziqarli bo'ladi. Zamonaviy muassasada, eng avvalo, ma'naviy-psixologik yakdillik, hamjamiyatlik, manfaat va intilishlar birligi vujudga kelgan bo'lishi lozim. Ba'zan bu birlik unchalik mustahkam bo'lmasligi ham mumkin. Bordi-yu, jamoada tarqoqlik, o'rinsiz tortishuv yuz berib, bu mojaro uzoq vaqt davom etsa, bunday muassasa o'z barqarorligini yo'qotadi va oqibatda inqirozga yuz tutadi. Odamlar va rahbar o'rtasida kelib chiqadigan nizolar ana shunday holatlar alomatlaridandir. Ba'zan rahbar jamoadan ortda qolib o'z oldiga qo'ygan vazifalarni hal etishga ojizlanib qolishi ham mumkin.

Raxbar psixologiyasi



Bordi-yu, u rahbarlik lavozimida bo'lsa-da, faolligi, mustaqilligi, tashkilotchiligi va alohida tadbirkorligi bilan boshqalardan ajralib turadigan shaxsiy sifatleri bo'lmasa, rahbar bilan jamoa o'rtasida munosabatlar yanada jiddiyroq tus ola boradi. Uning kasbiy no'noqligi o'z mavqeini yo'qotishga olib keladi. Agar rahbar jamoa oldidagi mas'uliyatini to'liq his etsayu, biroq o'ziga bo'yliq bo'lmagan sabablarga ko'ra endi uni boshqara olmaydigan psixologik sharoitga duch kelsa, unda rahbar o'z lavozimidan voz kechgani ma'qul bo'ladi.

Raxbar psixologiyasi



Agar rahbar o'z imkoniyatlariga yuqori baho berib, xatolariga tanqidiy yondashmasa, jamoada nizo tuyladi. Albatta, bunday sharoitda rahbar o'z xatti-harakatlarini oqlaydi va o'z chiqargan xulosasini yagona to'ryi echim deb baholaydi. Bunday sharoitda masala mohiyatini to'ryi tushunib etgan va rahbarning noma'qul faoliyatini aniq ko'rib turgan ayrim kayvoni kishilarning ham ko'pchilik oldida so'zi o'tmay obro'sizlanib qolishi mumkin. To'ryi, ba'zan jamoa yolib keladi, biroq bu juda katta mashaqqat va jamoa a'zolarining tirishqoqligi tufayli yuzaga chiqadi. Biroq, bu adolatning o'rnatilishi uzoq muddatga cho'ziladi. Rahbar jamoadan ilgarilab ketishi, ammo uning qobiliyati, layoqati jamoa hayotida o'z aksini topolmay qolishi ham mumkin. jamoa hayotida ma'naviy soylom munosabat barqaror bo'lsa, bu hol nizo keltirib chiqarmaydi. Chunki, qobiliyatli rahbar o'z bilimi va malakasining ortishi tufayli agar jamoada etarli imkoniyatlar bo'lsa, qo'llab-quvvatlash bo'lsa, rahbar yangi vazifaga ko'tariladi. Bordi-yu jamoa ma'naviy-siyosiy, iqtisodiy jihatdan shakllanmagan bo'lsa, qobiliyatli, tashabbuskor rahbar bilan jamoa o'rtasida psixologik nizo kelib chiqishi tabiiy. Bunda jamoa manfaatlari endi talabchan rahbar manfaatlariga to'ryi kelmay qoladi. Shunday vaziyatda u «to'ryi kelmaydigan rahbar», «osoyishtalikni buzuvchi rahbar» deb baholanib tazyiq ostiga olinadi va uning hammaga o'xshab tinch yurishi talab etiladi.

Raxbar psixologiyasi



Agar shunday holatda rahbar qoloq vaziyatga bo'ysunsa, «sen manga tegma, men senga» qabilida ish tutadi va u endi «faqir kishi panada» degan aqidaga amal qilib, o'zi bilan o'zi ovora bo'lib qoladi. Lekin o'sha rahbar o'z aytganida turib olsa, uning xatti-harakatlari «o'zini jamoaga qarama-qarshi qo'yyapti» deb baholanib, jazo olishiga, hatto ishdan ketishiga olib keladi. Ma'naviy, ruhiy, ijtimoiy tomondan kamol topib, rivojlanib borayotgan jamoa rahbardagi eng yaxshi fazilatlarning shakllanishiga imkon beradi, uning rahbarlik iste'dodini takomillashtiradi, siyosiy hushyorlikka chaqiradi, irodasini chiniqtiradi, ruhiy kuch-quvvatini oshiradi.

Ma'naviy soylomlik faol mehnat manbaidir. Shu muhitdagi yakdillik, hamjihatlik jamoaning barcha a'zolari ma'naviy qarashlarining mushtarakligi bilan belgilanadi. Har bir kishi manfaatini himoya qilish rahbarning o'z-o'zini anglashi demakdir. Bu holda jamoada shaxs haqida qayyurish tabiiy holga aylanishi tayin.

Raxbar psixologiyasi



Jamoada ichki birlik mustahkam va o'zaro munosabatlar faol bo'lgani holda, uning a'zolari ma'naviy me'yorlarni buzishsa, qonunga xilof ish tutishsa, o'z mehnati va vazifalarini tugal ado etmasalar yoki kishilar o'rtasida shaxsiy adovat paydo bo'lib, mayda kelishmovchiliklar bo'rttirib ko'rsatilsa, jamoa o'zining soylom ma'naviy muhitini yo'qotadi.

Aksincha, jamiyat tomonidan o'z oldiga qo'yilgan vazifalarni to'ryi tushunib, to'ryi qabul qila olgan muassasada yuzaga keladigan nizolar oson bartaraf etiladi. Amaldagi qonunchilik talablariga binoan mehnat munosabatlari O'zbekiston Respublikasi «Mehnat kodeksi» hamda boshqa qonunlar va hujjatlar bilan tartibga solinadi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2000 yil 3 avgustdagi «Viloyatlar, shaharlar va tumanlar hokimlari tashkiliy-kadrlar xizmati maqomini o'zgartirish to'ryisida»gi hamda 2004 yil 5 yanvardagi «Davlat boshqaruvi hududiy rahbarlari tuzilmasini takomillashtirish to'ryisida»gi qarorlari kadrlar masalasini tartibga soluvchi me'yoriy hujjatlardir.

Raxbar psixologiyasi



Prezidentimiz nutqlarining deyarli hammasida kelajakda rahbar xodimlarni yosh iqtisodchilardan tayyorlashni qayta-qayta uqtirmoqda. Bu juda to'g'ri, hayotiy tadbir. Jamoaga yosh va yangi rahbarning kelib qo'shilishi masalasi ham diqqatga sazovor. Ishga yangi saylangan yoki tayinlangan yosh rahbar jamoadagi ish jarayonida qiyinchiliklarga duch kelishi tabiiy, albatta. Chunki, u faoliyatining dastlabki davrida qaysi sharoitda qanday ish tutish kerakligini, odamlar bilan qanday muomala qilishni yaxshi bilmaydi. Moslashuv davrida hammadan ko'proq psixologik kolliziyalar (manfaat va intilishlar to'qnashuvi) vujudga keladi. Ba'zan yangi rahbar jamoada mavjud bo'lgan ba'zi odatlarga xilof, u o'z o'rnini o'zidagi rahbarlik salohiyatini ko'rsata bilish yo'llarini topa olmay, muayyan vaqt o'tguncha yakkalanib qolishi mumkin. Ana shunday paytlarda ishga loqaydlik bilan qaraydi. Xuddi shunday vaziyatda jamoaning tajribali kishilari, oqsoqollari, ishbilarmonlari, faollari yosh rahbarga nisbatan xayr-xohlik bildirib, uning o'z o'rnini topib olishga yaqindan ko'maklashuvi kerak.

Raxbar psixologiyasi



\ Ko'p hollarda jamoada ishlab, tajriba orttirish jarayonida yosh rahbar beixtiyor yoki ongli ravishda o'z ustozining ish uslubiga taqlid qiladi. Bu xususiyatni uning fe'l-atvorida, o'zini tutishida, hatto so'zlashishi, kiyinishida ham aks etishini ko'rish mumkin. Tashkilotchi xodimlarning psixologik faoliyatini o'rganish shuni ko'rsatadiki, rahbar rahbarlik faoliyatining mahorat cho'qqisini egallamaguncha unda taqlid qilib ishlash uslubi ancha ustun bo'ladi. Vaqt o'tishi bilan u, albatta, o'zining mustaqil boshqarish uslubini topib oladi. Shunga ko'ra bugungi kunda prezidentimiz tomonidan rahbar kadrlarga qo'yilayotgan, qolaversa, hayot taqozo etayotgan asosiy vazifalar quyidagilardan iborat desa bo'ladi:

Raxbar psixologiyasi



1. Rahbar ko'ngli ochiq, qalbi va qo'li toza, aql-zakovat sohibi, salohiyati shakllangan bo'lishi kerak;
2. Rahbar o'zini tarbiya qilgan, bilim va mahorat bergan, ishonch bildirib, yuksak martabaga munosib ko'rgan el-yurtiga halol xizmat qilishi, zimmasidagi mas'uliyatni doimo his qilib yashamo'yi kerak;
3. Rahbar aqlli, tajribali, o'z ishining bilimdoni bo'lgan mutaxassislariga tayanmo'yi, ularning fikriga quloq solmo'yi va shunga asoslanib xulosa chiqarmo'yi lozim. Uning quyi po'yonadagi rahbar kadrlarni to'g'ri tanlash va tarbiyalashi juda muhimdir;
4. Rahbarning barcha qilgan ishlari xalqimiz hayotiga ijobiy ta'sir ko'rsatmo'yi kerak. Kimlargadir yaxshi ko'rinish, maqtanish uchun qilingan ish rahbarni kelgusida katta fojialarga olib keladi;

Raxbar psixologiyasi



5. Rahbarda xalqi va vataniga fidoyilik, tashabbuskorlik, qat'iyat va talabchanlik bo'lmo'yi shart. Talabchanlikni zo'ravonlikka, qat'iyatni manmanlikka aylantirish o'ta kaltabinlikdir. Manmanlik, zo'ravonlik, o'zgalar fikriga quloq solmaslik rahbar kadrlarni yaxshi mutaxassislar, mehnatkash, sodda va samimiy odamlardan uzoqlashtirib qo'yadi. Rahbarning qo'l ostidagi xodim va mutaxassislarni ko'pchilik oldida shaxsiga tegib haqoratlashi uning ojizligi, o'z vazifasiga noloyiqligi alomatidir;

6. Rahbar hech qachon mayda gaplar, fisqu fasod, maishatbozlikka berilmasligi kerak;

7. Katta rahbarlarning kichik rahbarlarni mahalliychilik, oshna-o'yaynigarchilik, shaxsiy sadoqatiga qarab tanlashi o'ta kaltabinlikdir. Ayniqsa, yangi rahbar o'zidan oldin faoliyat ko'rsatgan rahbar davrida ishlagan yaxshi mutaxassislarni ishdan bo'shatishi, o'ziga raqib bilishi achinarli hol bo'lib, bu umumdavlat manfaatlariga jiddiy zarar etkazadi;

Raxbar psixologiyasi



8. Rahbar maqtovdan boshi aylanib, «dohiy»lik kasaliga chalinib qolmasligi juda-juda muhimdir. Bunday rahbarlar atrofida faqat o'z manfaatini o'ylovchi «maslahatgo'ylar», amalparast, laganbardor, poraxo'r, oddiy odamlarga zu'yum o'tkazuvchi odamlar to'planib qoladi. Buning oqibatida esa xalq va davlat manfaatlariga jiddiy ziyon etadi;

9. Rahbar nafs balosiga qarshi turmo'yi, o'zidan kichik rahbarlarni ham bu balodan asramo'yi kerak;

10. Rahbar adolatsizlikka aslo yo'l qo'ymasligi lozim;

11. Rahbar o'z shaxsiy hayoti, turmush kechirishida ham boshqalarga o'rnak bo'lmo'yi kerak;

12. Rahbarning barcha ishlari ochiq va oshkora bo'lishi lozim. Ularning vaqti-vaqti bilan xalq oldida hisobot berib turishlari rahbarlik faoliyatiga obro' keltiradi;

13. Rahbar o'z yoyasi, fikri, harakat dasturiga ega bo'lishi bilan birga, barchani ona-yurt taraqqiyoti, xalqimizning tinch-totuvligi, farovonligi yo'lida yagona yoya atrofida jipslashtirishi shart.

Raxbar psixologiyasi



Endi rahbar mas'uliyati haqida ozroq to'xtalib o'tsak. Mas'uliyat nima? U qanday shakllanadi? Rahbar madaniyatining asosiy belgilaridan biri — mas'uliyatdir. Rahbar mas'uliyati hamma zamonlarda ham muhim sanalgan. Mas'uliyat, avvalo, har bir kishining vijdoni, iymoni, qolaversa, o'zligiga nisbatan mas'ullik hissidan boshlanadi. Umuman, mas'uliyat rahbarning zimmasidagi vazifaga javobgarlik tuyʻusi, unga bo'lgan shaxsiy munosabati bilan belgilanadi. Mas'uliyatli rahbar eng avvalo, o'ziga, so'ngra boshqalarga nisbatan talabchan bo'ladi. Rahbardagi barcha salbiy hodisalar esa ana shu mas'uliyat hissining yo'qligidan kelib chiqadi.

Mas'uliyatsizlikning eng yuqori ko'rinishi — siyosiy mas'uliyatsizlikdir. Siyosiy mas'uliyatsizlik esa siyosiy kaltabinlik, safsatabozlik, nayrangbozlik, qalloblik va boshqa xunuk hodisalarga sababchi bo'ladi.

Raxbar psixologiyasi



Binobarin, rahbarlik lavozimidagi kishidan yuksak ong va tafakkur, hushyor idrok talab etiladi. Tarixiy tafakkur va siyosiy ongning qay darajada shakllanishi esa, avvalo, jamiyatning taraqqiyoti, undagi ichki va tashqi shart-sharoitlarga boʻyliq holda kechadi.

Yana bir muhim masalalardan biri — rahbarning siyosiy madaniyati. Madaniyat, avvalo, ma'naviy boylik hosilasidir. Siyosiy madaniyati yuksak rahbar millat, davlat, xalq manfaati nuqtai nazaridan ish tutadi, umum manfaatini o'z shaxsiy ehtiyoj va manfaatlaridan ustun qo'yadi.

Bugungi kunda mamlakatimiz hayotida yuksak siyosiy madaniyatli rahbarlar muhim o'rin tutadi. Shu bois, milliy kadrlar tayyorlash davlat siyosatining ustuvor yo'nalishiga aylandi. Bu borada Prezident Islom Karimov tashabbusi bilan ishlab chiqilgan va Oliy Majlis sessiyasida tasdiqlangan «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» (1997 yil), ayniqsa, zo'r ahamiyatga molik hujjat bo'ldi. «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» rahbarlikning o'ziga xos, o'zbek modeli sifatida vujudga keldi. Ushbu dasturning hayotga tatbiq etilishi yangi ilmiy-amaliy yo'nalish — «Islom Karimov modeli»ni yaratdi.

Raxbar psixologiyasi



Mazkur modelning diqqat markazidagi masala shaxsni shakllantirishdir. «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»ning asosiy sub'ekti ham shaxs, inson, insonni komil shaxs sifatida tarbiyalashdir. Milliy dasturning hayotga tatbiq etilishining natijasi bu — bilim, ishlab chiqarish malakasiga ega bo'lgan rahbar shaxslardir. Bu ulkan vazifani atroflicha shakllantirish inson omili bilan bo'g'liq bo'lib, bunga rahbar psixologiyasi fanida asosiy o'rin ajratilgan¹⁰. Demak, siyosiy jihatdan toblangan rahbargina umumbashariy qadriyatlarni o'zlashtirib davlat, xalq turmushiga tatbiq eta oladi. Xo'sh, bunday rahbarlarni kelajakda qanday tarbiyalash va qaerda tayyorlash mumkin?

Raxbar psixologiyasi



Avvalo, rahbarlar va rahbarlikka da'vogar shaxslar o'zlarini har jihatdan tarbiyalab borishlari ma'qul. Buning uchun siyosiy hayotdan xabardor bo'lishi yoki iqtisodiy, muhandislik, texnikaviy kabi kasbiy bilimlarni o'zlashtirishning o'zigina kifoya qilmaydi. Ular jahon tajribalari asosida shakllangan il'yor boshqaruv malakalarini ham o'zlashtirgan bo'lishlari kerak. Bugungi rahbar bunga qanday qilib erishadi? Masalan, u har kuni qanchadan-qancha gazeta va jurnallar o'qishi, radio va oynai jahon yangiliklaridan xabardor bo'lishi lozim. Yana siyosat, iqtisodiyot va ma'naviyatga daxldor kitoblarni, hatto mumtoz adabiyotlarni mustaqil o'qishi, tarixiy jarayonlarni chuqur mushohada qila olishi lozim.

Bularning barchasi rahbarlarda umummadaniy saviyaning o'sib borishiga va siyosiy madaniyatning takomillashuviga katta yordam beradi. Chunki xonaki ong, chala bilim, past madaniyat bilan dunyoni bilib ham, mas'uliyatli ish va mansabni egallab ham bo'lmaydi.

Binobarin, demokratik asosda shakllanib borayotgan jamiyatimiz talabi shuki, siyosiy etuk, aqlan va ma'nan barkamol, puxta bilimga ega bo'lgan teran tafakkurli kishilargina rahbar bo'lishga haqlidirlar.

Raxbar psixologiyasi



Xullas, jamoaga rahbarlik qilish katta san'at. Rahbar — ustoz, murabbiy, rahbar — millat tarbiyachisi, abadiyatga daxldor shaxs. Uning mashaqqatli mehnati natijasi o'laroq kelajagimiz vorislari kamol topib boradi. Demak, rahbarlarga qaratilgan e'tibor Vatan taqdiriga qaratilgan e'tibordir. «Davlat — rahbarlaru fuqarolarning sadoqati va fidoyiligi-la qudratlidir»¹¹, — degan edi uluʻ bobomiz Amir Temur.

Qadim-qadim ajdodlarimizning kindik qoni to'kilgan muqaddas maskanimiz sanalmish bu Vatanning bir kaft tuproʻyi, zilol suvi, toza havosi, rang-rang qir-adiyru, toʻy-toshlari yurakka shunchalik yaqinki, buni bir soʻz bilan ta'riflash juda qiyin. Ana shunday mo'tabar Vatanda rahbarlik qilish, uning har bir kelajak avlodi, har bir jamoasiga mas'ul bo'lish, butun umrini rahbarlik mehnatiga bay'ishlash, Vatanimiz ravnaqi uchun umrini sarflash har bir etakchi uchun katta baxtdir. Bunday rahbarlar bilan har qancha faxrlansak arziydi.

Raxbar psixologiyasi



\ Rahbarlar mehnati — mehnatning ijtimoiy fazilati, mazmuniga boʻyliq. Har qanday jamoa boshqarilishga muhtojdir. Boshqarish esa rahbar mehnatidir. Harbiylarga hamisha komandir kerak boʻlganidek, birgalashib ishlayotgan kishilarga ham ularning mehnat faoliyatlarini muvofiqlashtirib turish uchun rahbar zarurdir. Mustaqil hayotimizda rahbar mehnatining qadr-qimmati cheksiz oshib boradi. Shuning uchun ham «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» XXI asrda Oʻzbekistonda rahbarlik tizimini rivojlantirish istiqbolini belgilab berdi. Bu muhim hujjatda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarning muvaffaqiyati koʻp jihatdan ta'lim tizimi boshqaruv madaniyatini tubdan yangilashga va uni tinmay takomillashtirishga boʻyliq ekanligi koʻrsatilib oʻtilgan. Shu bilan birga «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» uzluksiz ta'lim tizimi oldiga umumiy hamda mutaxassislik madaniyati yuksak, ijodiy va ijtimoiy jihatdan faol, jamiyat hayotida sodir boʻlayotgan voqealarni mustaqil tahlil eta oladigan hal etish qobiliyatiga ega boʻlgan rahbar kadrlarni tayyorlashdek buyuk, istiqbolli muammolarni qoʻydi. Bu masala hozirgi kunda qanchalik dolzarb ekanligini prezidentimiz I.Karimovning quyidagi soʻzlari ham tasdiqlamoqda:

Raxbar psixologiyasi



«Biz oldimizga qanday maqsad qo'ymaylik, qanday muammoni echish zarurati tu'yilmasin, gap oxir-oqibat, baribir rahbar kadrlarga, yana rahbarlarga taqalaveradi. Mubola'yasiz aytish mumkinki, bizning kelajagimiz, mamlakatimiz kelajagi, o'rnimizga kim kelishiga yoki boshqacharoq aytganda, qanday rahbar kadrlar tayyorlashimizga bo'yliq»¹² .

Rahbarlik madaniyatini yuksaltirish maqsadida mamlakatimizda oliy ta'lim, xalq ta'limi, tibbiyot muassasalari, o'rta maxsus kasb-hunar ta'lim vazirliklari hamkorlikda ajoyib tadbirni amalga oshirdilar. Ular rahbar kadrlar shaxsning huquq va erkinliklarini ta'minlovchi, iqtidorli, qobiliyatlilar faoliyatini ro'yobga chiqaruvchi, mamlakatning ilmiy-texnikaviy, iqtisodiy va madaniy, kompyuter kommunikatsiya rivojini jadallashtirishga katta xizmat qiluvchi omillarni amalga oshiruvchi, zamonaviy rahbarlar XXI asr talablariga, jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy taraqqiyotiga mos keluvchi muammolar echimiga bay'ishlab, «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» mamlakatdagi iqtisodiy o'sish, ijtimoiy-madaniy o'zgarishlar va **milliy istiqlol yoyalarini amalga oshiruvchi omildir**»¹³, mavzuida ilmiy tadqiqotlar tanlovini e'lon qildi.

Raxbar psixologiyasi



Tanlovga ta'lim muassasalarida faoliyat ko'rsatayotgan rahbarlar, professor-o'qituvchilar, ilmiy-tadqiqot xodimlari, rahbarlik psixologiyasi bo'yicha nomzodlik, doktorlik ishi olib borayotgan aspirantlar, doktorantlar qatnashdilar. Hozirgi kunda kadrlar tayyorlash milliy dasturining ikkinchi bosqichida amalga oshirilishi lozim bo'lgan muhim masalalar tanlov mavzusining asosiy mazmunini tashkil etadi. Chunonchi, oliy va o'rta maxsus ta'lim, shuningdek, xalq ta'limi tizimlarida rahbarlik madaniyatini takomillashtirish, yuksak malakali rahbar kadrlarni tayyorlashda integratsiyalashuv amaliyoti va muammolari, kelajak rahbar mutaxassislarni milliy istiqloq yo'li ruhida tarbiyalashning asosiy vazifalarini belgilash ham tanlov mavzusi tarkibidagi muhim masalalardir. O'quv, tarbiya jarayonini tizimli boshqarish sifati kadrlar tayyorlash asosidir, o'qituvchilar malakasini oshirish va qayta tayyorlash ta'lim sifatini oshirish va etuk kadrlar tayyorlashning muhim omili kabi zamonamizning o'tkir muammolari ham tanlov mavzusidagi bosh yo'q va maqsad ekanligi o'z aksini topgan.

Odamlarning izzat-nafsoniyatiga tegmay, ularni haqorat qilmay, ularga ta'sir etishda rioya qilinadigan to'qqizta qoida



1-qoida. Ishni hamsuhbatingizni maqtashdan va uning yaxshi jihatlarini samimiy e'tirof etishdan boshlang.

2-qoida. O'zgalarning xatosini to'g'ridan-to'g'ri emas, balki bilvosita ko'rsating.

3-qoida. Dastavval o'z kamchilik, nuqsonlaringiz haqida gapiring, so'ngra hamsuhbatingizni tanqid qilishga kirishing.

4-qoida. Hamsuhbatingizga buyruqlar berish o'rniga unga savollar bering.

5-qoida. Odamlarga o'z obro'-e'tiborlarini saqlab qolishga imkon bering.

6-qoida. Odamlarning juda kichik bo'lsa ham muvaffaqiyatini e'tirof eting, ma'qullang hamda har bir yutug'ini qayd eting. "Baholashda samimiy va maqtovdagi bag'rikeng bo'ling".

7-qoida. Odamlarga yaxshi obro'-e'tiborga sazovor bo'lishlari uchun imkon yarating, toki ular buni oqlashga harakat qilishsin.

8-qoida. Rag'batlantirishga urining. Shunday tasavvur uyg'otingki, xatoga yo'l qo'ygan kishi xatosini yengil tarzda to'g'rilyadigan, tuzalgan deb his etsin; odamlarni yengil deb ishga urinishiga undang.

9-qoida. Shunga erishingki, odamlar siz tavsiya etgan ishlarni bajarganlaridan xursand bo'lishsin.

Мавзу: Оиладаги шахслараро муносабатлар психологияси ва унинг бола шахси шаклланишига таъсири.

Режа

- Оила психологиясининг мақсад ва вазифалари.
- Оталик ва оналик психологияси.
- Тарбия жараёнининг психологик асослари.
- Этнопсихологик масалалар.

Мулкчилик шаклларининг ўзгариши, турмуш тарзи қадриятларига монанд катталарнинг болага нисбатан ҳис-кечинмалари ҳам ўзгариб борган. Масалан, XIX асрнинг бошлари XX асрларнинг ўрталарига келиб, оналар фарзандларининг жамиятда тутажак ўринлари, уларнинг ижтимоийлашувига алоҳида эътибор бера бошлаганлар. Кейинги даврлар эса катталарнинг кичиклар тақдирига бефарқ эмаслиги, уларни қўллаб-қувватлаш, ривожланишига кўмаклашишнинг аҳамиятини англаш даври бўлган. Бу анъана деярли бизнинг давримизда ҳам давом этиб келмоқдаки, эндиликда туғилган болага эътибор оиланинг барча қадриятларидан устун ҳам келади.

Репродуктив хулқ – бу оилада фарзанд туғилиши билан боғлиқ хулқдир. У оила аъзоларини ўз даврининг фуқароси сифатида ижтимоий келиб чиқиши, ёши, саломатлиги даражаси, маданиятига бевосита боғлиқ бўлган хатти-ҳаракатидир. Бу ҳаракатларнинг асл мотиви аввало инсондаги ўзидан насл қолдириш, оилада эр-хотинлик бурчини адо этишга бўлган иштиёқ ва лаёқатга бориб тақалади.

- *Онадаги туғруқдан кейинги депрессия* – чақалоқ туғилгандан кейиноқ айрим оналарда пайдо бўладиган руҳий ҳолат. Бу ўзига хос хасталик бўлиб, унинг олдини олиш учун кўп ҳаракатлар қилинмоқда, чунки бунда ҳам психологик омилларнинг роли катта. Кузатишларнинг кўрсатишича, агар оилада эр-хотин муносабатлари яхши бўлмаса, отанинг болага эътибори етарли бўлмаган вазиятларда, онага амалий ҳамда молиявий кўмак бериш йўлга қўйилмаган бўлса, шу каби қийинчиликлар онада депрессияни ҳосил қилади (*Родригуес ва бошқалар, 2003*).

Оталик психологияси

- *Оталик психологияси* оналик психологиясига нисбатан кам ўрганилган соҳа. Оталар хулқини ўрганиш шуни кўрсатдики, улар ҳам ғамхўрлик ва самимийлик жиҳатидан аёллардан кам эмас, керак бўлса, улардан ҳам меҳрибон бўлишлари мумкин. Дастлаб ота ҳам, она ҳам болага нисбатан бир хил меҳрибонлик тимсолида намоён бўлгани учун, улар ўртасидаги фарқни чақалоқ деярли ҳис этмайди. Бир ёшга тўлгач, бола отасини алоҳида мустақил шахс сифатида идрок эта бошлайди, ўзаро муносабатлар триада шаклига ўтади. Отаси ва онасининг ўзаро муносабатларини кузатиб, бола тобора айрим алоҳида олинган мустақил, дистанцион муносабатларнинг маъносини тушуна боради.

Гиперпротекция

- ота-оналарнинг фарзандларига нисбатан ҳаддан зиёд эътибори бўлиб, бу уларнинг бола тарбияси учун куч, вақт ва эътиборни аямасликларида намоён бўлади. Ота-она бу ишни ҳаёт тарзига айлантиради, яъни она учун ҳам, ота учун ҳам бола тарбияси ҳаётининг мазмун-муддаосига айланади.

Ғамхўрликдан устун келадиган гиперпротекция

- бунда эркалатишдан кўра ота-она томонидан боласининг ҳар бир юрган қадами ва хатти-ҳаракатини нзоратга олиш орқали унга эътибор бериш назарда тутилади. Шунинг учун бу тарбия услубида турли хил таъқиқлар, чегаралашлар (“у мумкин эмас”, “бу мумкин эмас” қабилида) бисёр бўлади. Бундай шароитда катта бўлган бола одатда мустақил фикрли, мустақил қарорлар чиқарувчи бўлолмайди, лекин салга жаҳли чиқадиган, кўп нарсалардан норози ҳолда катта бўлади, чунки у доимий назоратга, бировларнинг ҳамма йўл-йўриқларни кўрсатиб, айтиб беришларига ўрганиб қолади: онасисиз дарс таёрлай олмайдиган, отасисиз кўчага чиқмайдиган бўлади, барча ишларида катталарнинг аралашувига кўникиб кетади.

Ўта кучли ахлоқий масъулият

- бунда ота-она томонидан болага нисбатан талаблар даражаси юқори бўлади, лекин унинг асл хоҳиш-истаклари, эҳтиёжлари унчалик эътиборга олинмайди. Ота-она боласининг келажагини пухта қилишни ўйлаб, унинг юриш-туриши учун ўзларини масъул деб ҳис қилган ҳолда, шахсий тасаввуридаги инсонни яратишга, шахсни шакллантиришга уринадилар, баъзан назорат остида боланинг ёши, ақлий ёки жисмоний имкониятларига зид талаблар, топшириқлар ҳам берилаверади. Масалан, “сен тўнғичимизсан, укаларингга сен қарашинг керак”, деган маънода унга оиладаги кичик аъзоларга ёки касалликка чалинган оила аъзосини парвариш қилиш каби масъулиятли ва оғир ишлар ҳам юкланади.

Эмоционал раддия

- бунда ота-она боласини шундай тарбиялайдики, унинг ота-она ҳаётида у ўзига яраша ташвиш, ортиқча юк эканлиги, у бўлмаганида ота-онанинг ҳаёти бошқачи бўлиши мунтазам равишда эслатиб турилади. Агар бу фарзанд оилада ягона бўлмаса, бошқа арзандароқ, суюклироқ инсон бўлса, вазият янада оғирлашади, “сен бўлмаганингда...” ёки қиз болага қараб: “Сенинг ўрнингда ўғил бўлганда эди...” қабилдаги кесатиклар тез-тез айтиб турилади.

Қаттиққўллик

- бир қарашда эмоционал рад этишга ўхшайди, лекин ундан очиқроқ ва оғирроқдир. Қаттиққўллик тўғридан-тўғри болани ёшлигидан калтаклаш, ҳақорат қилиш, камситиш шаклида ёки бола эҳтиёжларига тўла бефарқлик, унинг бор-йўқлигини гўёки сезмаслик каби кўринишларда бўлиши мумкин. Иккала ҳолатда ҳам бола ёшлигидан нима қилиб бўлса-да, тезроқ катта бўлиш, ўзи амаллаб тирикчилигини қилиш, ота-она тазйиқидан қутулишни ўйлаб яшайди. Бундай оилада болани у ёки бу хулқи учун жазолаш одат тусига кириб қолади, бола кўрққанидан ота-она ҳукмига итоат этаётганлиги, бунинг истиқболда ёмон асоратлари борлигини катталар билмайдилар, билсалар ҳам бу усул улар учун самарали туюлади. Айбдорлик, айбга яраша жазо каби усуллар бола хулқ-атворини бошқарувчи психологик омилга айланади, у ҳам келажакда доимо айбдорларни қидиришга ўрганиб боради.

Гипопротекция


- шундай ҳолатки, унда ота-онанинг бола билан шуғулланишга ё вақти етишмайди, ёки бу ишни бошқаларга юклаб қўяди. Айрим ота-оналар шу тарзда ҳаёт кечириб, фарзандларини умуман назорат ҳам қилмайди, унинг тақдирига бефарқ бўлади, ғамхўрлик кўрсатмайди, боласининг келажагига қайғурмайди. Гипопротекциянинг яширин шаклида ота-она бола устидан номига нималардир қилгандай бўлади. Лекин аслида уларни фақат ўзларининг кундалик муаммолари қизиқтиради. Бола бу ҳолатларни таҳлил этиб, ўзининг керак эмаслигини, оилада ортиқча эканлигини англаб боради.





Nizolarni boshqarish


KONFLIKT MENEJMENT


XTV O'quvchi yoshlar bilan ishlash boshqarmasi

- 
- Nizo(konflikt) deganda nimani tushunasiz? Ishtirokchilarning fikri tinglanadi.

- 
- **Nizo** – bu muholif (opponent)larning muayyan shaxsiy, kasbiy, ijtimoiy masalalarni hal etishda yuzaga kelgan munosabatlar, fikrlar, qarashlar, qadriyatlar, qiziqishlar, maqsadlar, ehtiyojlarning o'zaro qarama qarshiligi holati yoki to'qnashuvidir.


- 
- **Nizolar klassifikatsiyasi.**
 - **1.** Kelib chiqishiga ko'ra: shaxslar aro, shaxslar ichidagi, ishlab chiqarish, ijtimoiy-siyosiy;
 - **2.** Strukturasiga ko'ra: vertikal va gorizontal(tik va yotiq);
 - **3.** Mashtabiga ko'ra: Shaxs va guruh o'rtasida, huruhlar aro nizolar;
 - **4.** Oqibatiga ko'ra: Konstruktiv va destruktiv nizolar(bunyodkor va buzg'unchi).


- 
- **Konstruktiv nizolar:** Bunday nizolar ko'proq munozaralar, biror bir topshiriq yoki masalani ijobiy hal etish yo'llarini topish jarayonida yuzaga kelib, odatda jamoaviylikni, sog'lom psixologik muhitni shakllantirishga olib boradi. Konstruktiv nizolar sog'lom raqobat, ochiq samimiy tanqid, o'zini o'zi tanqid qilish xususiyati kabilarni o'zida jamlaydi. Bu demokratik prinsiplar asosida muammoni barrtaraf etish usulidir.

- 
- **Destruktiv nizolar:** Fitna va mayda gaplardan yuzaga keladi. Bunday nizolarda muholif shaxs;ar ish haqida yoki asosiy masalaning yechimi haqida emas faqat kurash haqida o'ylashadi. Bu hamkorlik, umumiy faoliyat, o'zaro tushunishga jiddiy halaqit beradi. Bunday nizolarni avtoritar boshqaruv tizimi kuzatib boradi. Shaxslar aro yuzaga keladigan destruktiv nizolar kuchli buzg'unchi harakter kasb etadi.
 - Demak, biz bugun destruktiv nizolar haqida asosan so'z yuritamiz.

KANSPEKT MASHG'ULOTI

- Ikkita ko'ngilli sihtirokchilar taklif qilinadi va ularga quyidagi topshiriqlar asosida ro'llarni o'ynab berish so'raladi. Ularga alohida-alohida bir biriga eshittirmay topshiriq beriladi.
- 1-ishtirochiga: Siz shu inson bilan birga bitta partada malaka oshirish kursida o'qidingiz. U inson butun darslar davomida to'liq kanspekt qilib borgan, kecha siz imtixonga kirishingiz kerak edi, lekin kanspekingiz yoq edi. Undan konspekt olib turdingiz va imtixonni 5 ga topshirdingiz. Lekin hursandchilik bilan, konspektni imtixon xonasida unutib qoldirdingiz, qaytib borganingizda esa uni topa olmadingiz. Xullas konspektni yo'qotib qo'ydingiz.
- 2-ishtirochiga: Siz malaka oshirish kursida birga o'qigan partadoshingizga o'zingizning kanspekingizni berib turibsiz, kecha u imtixonga kirib chiqqan va imtixonni muvaffaqiyatli topshirgan bo'lsa ham kerak. Bugun siz yakuniy imtixonlarga kirishingiz kerak, siz o'zingizga ishonasiz, chunki siz to'liq kanspekt qilgansiz. Bugun ertalab konspektni undan olishingiz kerak, tushdan keyin imtixon.
- Umumiy topshiriq: Sizlar doimgidek ertalabgi malaka oshirish kursi tinglovchilari yig'ilishida uchrashdingiz. O'zingizni o'sha sizga berilga ro'ldagi haqiqiy insondek tuting
- Mashg'ulot tugagach, muholiflar, bir biriga minnaddorchilik bildirishi, bu shunchaki teatr sahnasidagi ro'l edi deb tushunishi so'raladi. Nizoli vaziyatning emotsiyalarni sahnada tashlab ketish so'raladi.

- 
- Tahlil.
 - 1-tomoshabinlardan mashg'ulot bo'yicha fikr so'raladi?
 - 2-ko'ngilli ishtirokchilardan o'zlarini qanday his etgani so'raladi?
 - Muholif ro'lidagilarga savollar:
 - 1-sizdan yana bu odam konspekt so'rasa siz berasizmi?
 - 2-siz u insondan yana konspekt so'raysizmi?

- 
- *Nizo o'zi bilan yoqimsiz emotsiya va hissiyotlarni, o'zaro yomon munosabatlarni, baland ovoz, kesatq va haqorat, psixologik zo'riqish va irodaviy bosimni doimo olib yuradi. E'tiborga olish kerak, doim ham inson nizoli vaziyatga bilib tushmaydi. Hamma uchun ham nizo bu yoqimli holat emas.*

SIZ QANCHALIK NIZOGA MOYIL INSONSIZ MINI TESTI?

Savollarga o'zingizga mos bo'lgan javob variantini belgilang.

1. Jamoat transportida ketyapsiz, to'satdan baland ovozda bahs boshlanib ketti. Sizning bu holatga reaksiyangiz qanday bo'ladi?

- a) Bahsda qatnashmayman.
- b) O'zim haq deb bilgan tomonim uchun qisqacha fikrimni bildiraman.
- c) Bahsda faol qatnashaman va o'z munosabatlarimni erkin bildiraman

2. Majlislar, yig'ilishlar, darslarda insonlarga nisbatan tanqidiy fikrlar bildirasizmi?

- a) Yo'q.
- b) Faqatgina juda kuchli sabablar bo'lsagina.
- c) Har qanday vaziyatda tanqidiy fikrim bo'lsa bildiraman.

3. Do'stlaringiz bilan tez-tez bahslashasizmi?

- a) Tez hafa bo'lib qolishmasagina, ha.
- b) Umumiy masalalarda bahslashaman.
- c) Bahslashish mening jonu-dilim.

4. Uyda tushlikka tuzi past ovqat tortishdi (yoki sizni qilgan ovqatingizning tuzi pastligini tanqid qilishdi), bunga sizning reaksiyangiz?

- a) Mayda-chuyda narsalarga e'tibor bermayman.
- b) Indamasdan tuzdonni olaman.
- c) Tuzi pastligini aytib o'taman (tanqid qilishsa men ham jim eshitmayman).

5. Ko'chada yoki jamoat transportida oyog'ingizni bosib olishdi, siz?

- a) U odamga bir qarab qo'yaman.
- b) Kichik tanbeh berib qo'yaman.
- c) Nimani his qilsam, barini aytaman.


6. Yaqinlaringizdan biri sizga yoqmaydigan narsa sotib oldi, u narsa sizga chindan yoqmadi siz?


- a) Sukut saqlayman.
- b) Qisqa tanqid qilib qo'yaman.
- c) Tanbeh beraman, janjal uyushtirib qolishim ham mumkin.


7. Lotoreya o'ynadingiz. Lekin omadsizlikka uchradingiz. Bunga munosabatingiz?

- a) O'zimni be'etibor tutaman, kelib o'sha lotoreyani o'ynamaslikni o'zimga o'zim va'da beraman.
- b) Alamimni yashirmayman, hech bo'lmaganda yumor bilan alamimni chiqarib yuboraman.
- c) Kayfiyatim tushishi, jahlim chiqishi mumkin.

- *Har bir belgilagan javobingizni quyidagi tarzda baholab, ballarni hisoblang.*
- *a=4 ball, b=2 ball, c=0 ball. Hamda umumiy balldan kelib chiqib quyida keltirilgan o'zingizni tavsifingizni o'qing*
- **28-20** ballar oralig'i: *Siz andishali va tinchliksevar insonsiz. Nizo va bahslarga yaqinlashmaysiz. Uyda ham ishda ham tanqidiy vaziyatlardan qochasiz. Shuning uchun bazida siz juda moslashuvchan inson sifatida e'tirof etilishingiz mumkin. Lekin, vaziyatdan kelib chiqib muhim joyda o'z fikringizni bildirga olishni bilishingiz yoki o'rganishingiz maqsadga muvofiq.*
- **20-18** ballar oralig'i: *Siz biroz nizoga moyil inson bo'lsangizda, faqatgina hech boshqa iloj qolmaganda nizoga kirishingiz mumkin. Mustahkam o'z fikringizda qolsangizga, tog'rilik qoliblaridan chiqmaslikni unutmaysiz. Bu insonlarda sizga nisbatan hurmat saqlashiga sabab bo'ladi.*
- **8-ballgacha:** *Nizolarm bahs-munozaralar jonu-dilingiz. Boshqalarni tanqid qilishni yaxshi ko'rasiz ammo tanqidlarni ko'tara olmaysiz. Sizdagi ayrim hollardagi qo'pollik, o'zini boshqara olaslik insonlarni sizdan uzoqlashtirishi mumkin. Uyda, ishda, ko'chada siz bilan kelishish qiyin bo'lishi mumkin, shuning uchun o'z hatti-harakatlaringizni e'tiborsiz qoldirmang, ularni nazorat qilish maqsadga muvofiq.*

- 
- Konfliktogenlar bu o'zaro munosabatlarda nizolarni yuzaga keltiruvchi va nizolarni avj oldiruvchi shaxslar, xatti-harakatlar, sabab va shart-sharoitlardir.

- 
- ***Konfliktogen shaxslar:***
 - *ustunlikni sevuvchilar;
 - *qobiliyatli, lekin o'zini tanqid qilishdan yiroq insonlar;
 - *bekorchilar;
 - *hurmat talab insonlar, odatda tajribali yoshi kattalar;
 - *omadsizlar;

- 
- ***Konfliktogen sabablar:***
 - Suhbatdoshni gapini bo'lish
 - Suhbatdoshni yerga urish
 - Suhbatdoshning hatti-harakatlari, fikrlariga nizbatan salbiy baho berish
 - O'zingi va suhbatdosh o'rtasidagi farqni ko'rsatib, o'zingizni ustun qo'yishingiz (sen hali nonni nanna deb yuribsan)
 - Umumiy faoliyatda o'zining hissasini oshirib sherigini hissasini kamaytirib ko'rsatish
 - Tirnoq ostidan kir qidirish va pashshadan fil yasash
 - Muammoni hal etish uchun sun'iy vaqt tanqisligini hosil qilish
 - Keskin ravishda suhbatni tez yakunlashga intilish
 - Suhbatdoshni tushuna olmaslik yoki tushunishni istamaslik
 - Suhbatdosh bilan hissiy-emotsional aloqa uzilishi
 - Suhbatdoshdan o'zini olib qochish
 - Kinoya, piching, ilmoqli, alamzadalik bilan aytilgan gaplar
 - Mimika va jestikulyatsiya harakatlarining suhbatdosh tomonidan notog'ri idok etilishi.

Nizolarni bartaraf etish algoritmi(ketma-ketligi)

- 1)Qulay vaqt va sharoitni topish***
- 2)Samimiy bo'lish***
- 3)Ultimatum qo'ymaslik***
- 4)Asosiy nizo mavzusidan chetga chiqib ketmaslik***
- 5)Muntazam maqsadga oydinlik kiritib turish***
- 6)O'zaro teng yutuqli strategiyaga intilish***
- 7)Boshlangan ishni oxiriga yetkazish majburiyatini olish***
- 8)Ma'suliyatli bo'lish***
- 9)Butun suhbat davomida o'zining opponentini(muholif suhbatdosh) eshitish va tinglash


- **Nizoli vaziyatda o'zini tutish bo'yicha tavsiyalar**
- **(opponentga mos sozlanish)///***
- Faqat o'zining fikri va holatiga bog'lanib qolmaslik///*
- O'zining hamda opponentning o'zini tutishini, hatti-harakatlari, mimikasi va ovoz to'nini tahl (analiz-sintez) qilish///*
- Opponentning o'rniga o'zini qo'yib ko'rish va uni holatini idrok etish, xayrihoxlik yoki hamdardlik bildirish
- **(opponentni qayta sozlash)///***
- Kerak bo'lganda to'xtab opponentga gapirib olishga imkon bering///*
Drukgyemni anomiya nazariyasi uning tarixiy-evolutsiion konsepsiyasing bir qismi sifarida, an'anaviy va zamonaviy jamiyatdagi muholifatga qaratilgan nazariyadir.



Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1) Karimov I.A. "Ona yurtimiz baxt-u iqboli va buyuk kelajagi yo'lida xizmat qilish eng oliy saodatdir" T.2016y
- 2) Karimov I.A. "Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch" T.2008y
- 3) Karimov I.A. "Jamiyatimiz mafkurasi xalqni-xalq, millatni-millat qilishga xizmat qilsin" Tafakkur 1998. N2,6-bet
- 4) Entoni Giddens "Sotsiologiya" T.2002
- 5) Internet va ommaviy axborot vositalari ma'lumotlari

www.ziyo.uz

www.referat.uz





**E'TIBORINGIZ
UCHUN
RAHMAT!**

Reja:

- *Deviant xulq-atvor sotsiologiyasining mohiyati.*
- *Deviant xulq-atvorning nisbatan kengroq tarqalgan ko'inishlari*

Deviant xulq-atvor sotsiologiyasining mohiyati.



- Jamiyatda insonlar faoliyati, xatti-harakatlari va xulq-atvorlarini ijtimoiy me'yorlar boshqaradi. Ijtimoiy me'yor jamiyat boshqaruvining ajralmas qismi bo'lib, shaxs yoki ijtimoiy guruh xulq-atvorini muayyan sotsial muhitga moslashtiruvchi qoidalar majmuidir. Ijtimoiy me'yorning bir necha turlari mavjud bo'lib, huquqiy, axloqiy, diniy hamda urf-odatlariga oid me'yorlar shular jumlasidandir.

- Ijtimoiy me'yorning afzalligi shundaki, yoshligidanoq muayyan me'yorlarga moslashtirib borilgan shaxslar umum tomonidan qabul qilingan tamoyillar doirasidan chetga chiqmaydi va boshqalardan ham shuni kutadi. Jamiyat taraqqiy etib borgan sari o'rnatilgan me'yorlar ham eskirib boradi va yangi me'yorlar o'rnatiladi. Yangi me'yorlarni o'rnatish jarayoni jamiyatda o'rnatilgan mavjud me'yorlar doirasini kengaytirish va o'zgartishdan iboratdir.



- **Jamiyat a'zolarini mazkur ijtimoiy me'yorlarga amal qilib yashashlarini nazorat qilib boruvchi institutlar ijtimoiy nazorat institutlari deyiladi. Ushbu institutlarga oila, maktab, mahalla, huquqni muhofaza qilish organlari va hokazolar kiradi.**



Deviant xulq-atvor

- — jamiyatda oʻrnatilgan axloq meʼyorlariga mos kelmaydigan insoniy faoliyat yoki xatti-harakat, ijtimoiy hodisa boʻlib, yolgʻonchilik, dangasalik, oʻgʻrilik, ichkilikbozlik, giyohvandlik, oʻz joniga qasd qilish va boshqa koʻplab shu kabi holatlar ushbu xulq-atvor xususiyatlari hisoblanadi.



Quyidagilar deviant xulq-atvorning nisbatan kengroq tarqalgan ko'rinishlaridan hisoblanadi:

- **Jinoyatchilik. Muayyan davlatda o'rnatilgan qonun va me'yorlarga nisbatan ayrim shaxslarning salbiy munosabati jinoiy faoliyat, mazkur shaxs esa jinoyatchi hisoblanadi.**



- **Ichkilikbozlik. Bu borada ilmiy adabiyotlarda bir necha tasniflar mavjud:**
- **1) Alkogolni har-har zamonda iste'mol qilish.**



- 2) Alkogolni ko'p iste'mol qilish — spirtli ichimliklarni mumtazam, ya'ni haftada bir martadan bir necha martagacha yoki, birvarakayiga o'rtada tanaffus bilan ko'p miqdorda (200 ml.dan oshiq). Bu ko'pincha alkogolizmga olib keladi.
- 3) Alkogolizm — spirtli ichimliklarga patologik (muttasil) o'rganib qolish bilan tavsiflanuvchi kasallik.



GIYOHVANDLIK.

- **Giyohvand yoki unga tenglashtirilgan vositalarga muntazam ruju qo'yish va tibbiy ko'rsatmalarsiz iste'mol qilish.**



Fohishabozlik.

- Fanda rasmiy nikohsiz jinsiy aloqa ikki turga bo'lib o'rganiladi:
- 1. Konkubinat — nikohsiz birga yashash.
- 2. Fohishabozlik — pul uchun o'z tanasini sotish.

G'arbda asosan ikkinchisi qoralansada, Sharqda ikkala holatga ham me'yordan og'ish sifatida qaraladi.



«Byurokratiya»

- «Byurokratiya» termini asilda «hokimiyanga ega boʻlgan xodim» degan maʼnoni anglatadi. Biroq davrlar oʻtishi bilan «byurokratiya» mahalliychilik, qogʻozbozlik, toʻrachilik, mansabni suisteʼmol qilish kabi salbiy maʼnolarda qoʻllanila boshlaydi. Hozirgi kuyda koʻplab davlatlarda «byurokratiya» termini asl maʼnosini yoʻqotib, boshqaruvdagi oʻziga xos idoraviy uslub tarzida tushuniladi.



**Mahalliychilik, urug'-aymoqchilik,
boqimandachilik kabi salbiy holatlar
ham ijtimoiy me'yordan cheskinishning
diqqattalab ko'rinishlaridan
hisoblanadi.**



- Deviant xulq-atvor muammosini sotsiologiya fani doirasida dastlab. E.Dyurkgeym maxsus o'rgangan bo'lsa-da, jamiyatning eng qadimiy muammolaridan biri sifatida deviant holatlarga munosabatlar qadim davrlardan shakllanib kelgan.



- Qadimgi xalqlarning diniy-mifologik tasavvurlari, xususan, Misr, hindiston va Xitoy diniy qonun-qoidalaridagi axloqiy me'yorlar bu sohadagi dastlabki qarashlar edi. Qadimgi yunon va Rim faylasuflari ham o'z asarlarida mazkur muammolarni tahlil qilib berganlar.





- **Deviant xulq-atvor muammolarini tahlil qilishda R.Merton ishlab chikkan ta'limot sotsiologiyada yetakchi o'rin tutadi. E.Dyurkgeymning anomiya g'oyasini rivojlantirib, Merton deviant xulq-atvorga quyidagicha ta'rif beradi: «Deviant xulq-atvor jamiyatda e'lon qilingan qadriyatlar va rasmiy xulq-atvor standartlari bilan aholi xulq-atvor motivlari hamda mavjud imkoniyatlarining bir-biriga mos kelmay qolishi natijasidir».**

- **Shaxslarda yuz beruvchi deviant holatlarning paydo bo'lishi, shakllanishi va rivojlanishida muhim ahamiyatga ega bo'lgan uchta omilni ko'rsatish mumkin. Bular shaxs xususiyatlari, muammoli holat va ijtimoiy nazorat institutlari. Aynan mana shu omillar shaxsning qanday faoliyat yuritishini belgilab beradi.**



Shaxs xususiyatlarining shakllanishida asosan 3 ta omil muhim ahamiyat kasb etadi, bular:

irsiy omillar;

psixo-fiziologik omillar;

shaxsning bilim darajasi.

- **Shuningdek, ijtimoiy og‘ishlarning yuz berishiga shaxsning qat’iyatli yoki qatiyatsizligi, prinsipiialligi yoki prinsipsizligi, qoidalarga bo‘ysunish yoki bo‘ysunmaslik odatlari, biron-bir qarorga kela olish imkoniyati, tashqi ta’sirga qanchalik berilishi, irodasi va boshqa shu kabi psixofiziologik holatlari, mijozi ham katta ta’sir ko‘rsatadi.**




- **Deviant xulq-atvorni o'rganishda muammoli vaziyat muhim ahamiyat kasb etadi. Muammoli vaziyat shunday holatki, u sub'ektdan yechimini talab qiladi, uning yechimi ijtimoiy me'yorlarda ko'rsatilgan bo'lsa-da, u yoki bu sabablarga ko'ra, ushbu me'yorlarni qo'llash qiyinroq bo'ladi.**



- Bolalar o'rtasida ichkilikbozlik, giyohvandlik kabi tuzalishi qiyin bo'lgan vaboning tarqalishiga ota-onalarning o'z yumushlari bilan o'ta bandligi, bolalarni nazoratsiz qoldirishlari, oilaviy nizolar, ortiqcha boylik orttirishga ruju qo'yish, bolaning keragidan ortiq ta'minlanganligi va boshqa omillar sabab bo'lmoqda.





- Ma'lumki, spirtli ichimliklarni iste'mol qilish, turli narkotik moddalarni chekish mamlakat taraqqiyotiga, inson kamolotiga salbiy ta'sir etadi. Shuning uchun ichkilik va nashavandlikdan saqlanishga da'vat etiladi.

- **Alisher Navoiy ichuvchi kishi «yomon itdek odamlarga o'z-o'zidan hamla qiladi. Uni shunchaki yomon it emas, qopadigan it desa ham bo'ladi. Ichishlik ham dard o'ti, ham suvidir: yo'q, u do'zax o'ti ham to'fon suvidir... Bu o'tda to'rt unsurgina yonib, yo'q bo'lib ketmaydi, aql-u his, din-u islom ham yo'qoladi, deganlar.**



- Har qanday jamiyatning iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy va ma'naviy taraqqiyotiga zarba beruvchi illatlardan yana biri giyohvandlik hisoblanadi. Giyohvandlik ham ichkilikbozlik singari inson salomatligining ashaddiy kushandasidir.



- Giyohvand asli nasha, qoradori, ko'knori, heroin va shu kabi narkotiklarni iste'mol qilishga odatlangan odamdir. Bunday odamlarni o'z nomi bilan emas, balki bangi, nashavand, ko'knori deb atashadi.



- **Narkotik moddalarning qaysi turini iste'mol qilishdan qat'i nazar, hammasi ham naslga yomon ta'sir etadi, giyohvand ayol yoki erkakning farzandlari tug'ma nogiron, mayib-majruh, aqli zaif, jismonan rivojlanmaydigan bo'lib tug'iladilar.**



- . Ma'lumki, har qanday holatda ham, ko'p «qurbon» berib. bo'lsada, to'g'ri yechimga erishish mumkin. Lekin hamma gap shundaki, sub'ekt «qurbon» bera oladimi: xotini (yoki eri) bilan ajralib keta oladimi, yangi kasbga ega bo'la oladimi yoki yo'qmi. Qat'iy qarorga kela olmay, ko'pincha sub'ekt «o'rinbosar» vositalarga, ichkilik va giyohvand moddalarga murojaat etadi.



- **Bunday holatlarning keyingi farqi shundaki, ko'pincha sub'ekt ularni hal qilishning noto'g'ri yo'llarini tanlaydi. Oilaviy va ishdagi janjallar odatga aylanib qolganda bundan «qutulishning» noto'g'ri xayoliy yo'llari, ichkilik, giyohvand vositalar va hokazolarga murojaat etiladi. Biroq bu yo'l ziddiyatning chuqurlashuviga va turmush tarzini zararlantiruvchi omilga olib keladi.**



- Statistik ma'lumotlarga qaraganda O'zbekistondagi jinoyat ishlari bo'yicha sudlar tomonidan 2002 yili 49173 shaxsga nisbatan jinoyat ishi ko'rilgan bo'lsa, ulardan 2163tasi voyaga yetmaganlardir, bu esa 4,3%ni tashkil etadi. Bulardan 613tasi (28%) maktab o'quvchilari, 644tasi (29%) litsey va kollej o'quvchilari ekanligi aniqlangan.



- Oilada ichkilikbozlikmi, giyohvandlikmi, kashandalikmi, nosvoy chekishmi — qaysi biri mavjud ekan, u yerda sog'lom fikrli farzand kamoloti, oilaviy baxtiyorlik, hamjihatlik, o'zaro hurmat-izzat haqida gap bo'lishi mumkin emas.



- Oilaning sog'lom turmush tarzi, dunyoqarashi, ota- onaning halolligi, pokligi, mehnatsevarligi, e'tiqodi farzandlarni ichkilikbozlikdan, giyohvandlikdan, kashanda-likdan asrovchi omillardir.



SHAXS VA DEVIANT XULQ-ATVOR SOTSIOLOGIYASI.



REJA:

- 1.SHAXS TUSHUNCHASI VA UNING MOHIYATI;
- 2.DEVIANT XULQ-ATVOR TUSHUNCHASI, TURLARI(DELIKVANTLIK)
- 3.DYURKGEYM VA MORTONLARNING DEVIANT XULQ-ATVOR NAZARIYALARI;
- 4.Z.FREYD VA E.FROMMLARNING DESTRUKTIV NAZARIYASI.



1.SHAXS TUSHUNCHASI VA UNING MOHIYATI

- Har qanday ijtimoiy tizimning bo'laklari kishilar hisoblanadi. Kishilarning jamiyatga kiritilishi turli birliklar orqali amalga oshiriladi. Xar bir aniq shaxs sotsial guruxlar, sotsial institutlar, sotsial tashkilotlar ,jamiyatda qabul qilingan qoida va qadriyatlar tizimi , ya'ni madaniyat orqali gavdalanadi





- Shaxs sotsial o'zaro ta'sir va munosabatlarning birlamchi omili bo'lib xisoblanadi. Shu jihatdan qaraganda shaxsning o'zi nima? Bu savolga javob berish uchun ,avvalo inson, individ, shaxs tushunchalarini bir biridan farqlab olish kerak.

<Inson> tushunchasi umumiy ,xamma uchun xos bo'lgan sifat va qobiliyatni izoxlash uchun qo'llaniladi.Demak,insoniyat o'ziga xos moddiy voqelik sifatida mavjud bo'ladi.Ammo, insoniyat o'z xolicha mustaqil mavjud bo'lmaydi.

Insoniyat aloxida vakillarining mavjud bo'lishi <individ> tushunchasi bilan ifodalanadi. Individ-bu insoniyat zotining yakka vakili,insoniyat xamma sotsial va ruxiy jixatlarining idrokiy irodasi, extiyojlari,manfaatlari va xokazolarning soxibi xisoblanadi.<Individ> tushunchasi bu vaziyatda <aniq inson> sifatida qo'llaniladi.

<Shaxs> bir qator ijtimoiy - gumanitar fanlarning falsafa ,ruxshunoslik,pedagogika va sotsialogiyaning o'rganish ob'yekti xisoblanadi.

Falsafa
shaxsni
faoliyat
sub'yekti ,ong
va ijodiyot
sifatida tutgan
o'rne, nuqtai-
nazaridan
qarab chiqadi.

PSIXOLOGIYA


shaxsni ruxiy
jarayonlar
,xususiyat,qobil
iyat,iroda
sifatlari va
boshqa
jihatlardan
barqaror yaxlit
xoldao'rganadi.

Sotsiologiya

shaxsni sotsiol tipik
jihatin
ajratadi.Shaxs
sotsiologik
nazariyasining asosiy
masalasi shaxsning
shakllanish jarayoni
va uning extiyojlarini
qondirish,jamiyat
bilan shaxs
aloqalari,shaxs va
guruxlar,shaxsning
sotsiol fe'l atvorini
tartibga solish
qonuniyatini
o'rganish bilan
chambarchas bog'liq.

Shaxs bu insonning jismoniy tabiati emas, balki uning ijtimoiy sifatidir. Shaxs ehtiyojlari uning manfaatlari orqali namoyon bo'ladi. Manfaatlari esa uni maqsadli faoliyatiga yo'llaydi. Kishilarning ijtimoiy munosabatlari ularning xulqlarida, eng avvalo manfaatlari tarzida namoyon bo'ladi. Bu esa o'z navbatida shaxs faoliyatining maqsadini, mazmuni va mohiyatini ifodalaydi

SHAXS TO'G'RISIDAGI NAZARIYALAR.



Karl Marks va F. Engels tomonidan asos solingan shaxs ijtimoiy faoliyat va munosabat sub'yekti va ob'yekti to'g'risidagi marksistik nazariyada asosiy e'tibor shaxs va jamiyatning o'zaro munosabatiga qaratilgan. Marksistik sotsiologiyada shaxsning moddiy faoliyati jarayonida yuzaga keluvchi va ongining muayyan xususiyatlarini aks ettiruvchi sub'yektiv jihatlarini ko'proq tadqiq qilingan.

Amerika sotsiologlari T. Znanetskiy va Ch. Tomaslar asos solgan shaxs ijtimoiy xulqini o'z o'zini boshqarishning dispazitsion nazariyasida shaxs xayotidagi dunyoqarashlilik va qadriyatli normativ omillariga ko'proq ahamiyat beriladi. Bu nazariyaga ko'ra shaxs ongi uning xayotiy o'rnini belgilaydi. Shaxs dunyoqarashi, ijtimoiy qadriyati, g'oyaviy va ma'naviy normalar uning faoliyatini belgilovchi asosiy omillardir.

Sotsiologiyada Amerikalik D.J. Mid va G.R. Mintonlar tomonidan asos solingan shaxsning roli nazariyasi xam diqqatga sazovor. Keyinchalik bu nazariya G. Merton va T. Parsons, G'arbiy Germaniya sotsiologi G. Darendorflar tomonidan yanada rivojlantirilgan. Bu nazariya ikki asosiy tushunchalar; shaxsning ijtimoiy mavqei va ijtimoiy roli orqali tushuntiriladi. Unga ko'ra, xar bir inson muayyan ijtimoiy tizimda bir necha






2.DEVIANT XULQ-ATVOR TUSHUNCHASI, TURLARI(DELIKVANTLIK)

Jamiyatda mavjud ijtimoiy me'yorlardan chetga chiqish holatlarini- deviant xulq atvor sotsiologiyasi o'rganadi

Jamiyatda o'rnatilgan axloq me'yorlariga mos kelmaydigan insoniy faoliyat yoki hatti-harakat, ijtimoiy hodisa bo'lib, yolg'onchilik, dangasalik, o'g'irlik, ichkibozlik, giyohvandlik, o'z joniga qasd qilish kiradi.



- Deviantni guruh yoki jamiyatda ko'pchilik odamlar tomonidan qabul qilingan me'yor va me'yorlar yig'indisiga mos kelmaslik deb aytish mumkin. Chunki, xulq atvorning umumiy qoidalarini ko'pchiligimiz buzamiz. Ko'pchilik kichik o'g'irliklar, masalan, do'kondan biror narsaga haq to'lamay shaxsiy manfaatlar yo'lida foydalanish uchun olib ketish hollariga yo'l qo'yganmiz.



DEVIANT XULQ DEGANDA, QUYIDAGILAR NAZARDA TUTILADI:

Jinoyatchilik

Foxishabozlik.

alkogolni ko'p
iste'mol qilish

Giyohvandlik.





Jinoyatchilik.
Muayyan davlatda
oʻrnatilgan qonun va
meʼyorlarga nisbatan
ayrim shaxslarning
salbiy
munosabati jinoiy
faoliyat, mazkur
shaxs esa jinoyatchi
hisoblanadi



Ichkilikbozlik. Bu borada ilmiy adabiyotlarda bir nechta tasniflar mavjud: 1) alkogolni har-har zamonda iste'mol qilish; 2) alkogolni ko'p iste'mol qilish-spiritli ichimlikliklarni muntazam, ya'ni haftada bir martadan bir necha martagacha yoki, birvarakayiga o'rtada tanaffus bilan ko'p miqdorda (200 ml dan oshiq); Bu ko'pincha alkogolizmga olib keladi. 3) alkogolizm-spiritli ichimliklarga patolik(muttasil) o'rganib qolish bilan tavsiflanuvchi kasallik





Giyohvandlik. Giyohvand
yoki unga tenglashtirilgan
vositalarga doimiy ruju
qo'yish va tibbiy
ko'rsatmalarsiz iste'mol
qilish



Foxishabozlik. Fanda rasmiy nikohsiz jinsiy aloqa ikkita turga bo'lib o'rganiladi: 1. Konkubinat – nikohsiz birga yashash. 2. Foxishabozlik-pul uchun o'z tanasini sotish, g'arbda asosan ikkinchisi qoralansada, sharqda ikkala holatga ham me'yordan oqish sifatida qaraladi.



- Bulardan tashhari, xalqimizda mahalliychilik, urug'-aymoqchilik, boqimandachilik kabi salbiy holatlar ham me'yordan chekinishning diqqattalab ko'rinishlaridan hisoblanadi.

Deviant xulq-atvor bir shaxsning salbiy xulq-atvordan iborat faoliyatini, shuningdek, muayyan guruhning og'ma xulq-atvorlarini ham ifodalovchi tushunchadir.

Ma'lumki, ijtimoiy me'yorlar va ulardan chekinishlar haqidagi qarashlar insonning ijtimoiylashuv jarayoni bilan bir vaqtda paydo bo'lgan. Qadimgi xalqlarning diniy-mifologik tasavvurlari, xususan Misr, G'indiston va Xitoy diniy qonun-qoidalaridagi axloqiy me'yorlar bu sohadagi dastlabki qarashlar edi. Ushbu «qonunlar»da barcha huquqlar insonga xudolar tomonidan beriladi va qonun buzuvchilarni xudolar jazolaydi, deb hisoblangan. Bunday qarashlar dastlab yunon va Rim faylasuflari asarlarida o'z ifodasini topdi.

O'rta asrlarda axloq me'yorlari diniy qarashlar ta'siri ostida rivojlandi va ulardan chekinish diniy nuqtai nazardan baholangan. Yevropada xristian dini barcha sohada hukmronlik qilgan bo'lsa, sharq dunyosida axloqiy-huquqiy me'yorlar va ular haqidagi ta'limotlar islom falsafasi ta'sirida rivojlandi.



- Antiijtimoiy (delinkvent) axloq- bu qonun me'yorlariga qarshi chiquvchi, ijtimoiy tartib va atrofdagi odamlar farovonligiga xavf soluvchi axloq. U qonunchilik bilan taqiqlangan istalgan harakat yoki harakatsizlikni o'z ichiga oladi.

Katta odamlar (18 yoshdan kattalar) da delinkvent axloq, ayniqsa, o'z ortidan jinoiy yoki fuqarolik javobgarligi va tegishli jazoni boshlab keluvchi qonunbuzarlik shaklida namoyon bo'ladi. O'smirlarda (13 yoshdan boshlab) delinkvent axloqning quyidagi turlari ustunlik qiladi: bezorilik, mayda o'g'rilik, o'g'rilik, vandalizm, jismoniy zo'rlik, giyohvand moddalarni sotish. Bola yoshida (5 yoshdan 12 yoshgacha) o'zidan kichik yoshdagi bolalar va tengdoshlariga nisbatan zo'ravonlik, hayvonlarga shafqatsiz munosabat, o'g'rilik, mayda bezorilik, mulkni buzish, yondirish kabi shakllari birmuncha keng tarqalgan.

Asotsial axloq- bu shaxslararo munosabatlarning tinchligiga bevosita xavf soluvchi, axloqiy-ma'naviy me'yorlarni bajarishdan qochuvchi axloq. U tajovuzkor axloq, jinsits deviatsiya (tartibsiz jinsiy aloqador, fohishabozlik, yomon yo'lga kirish, vuayerizm, ekskibitsionlik, va boshqalar), pulga azart o'yinlarga tortilish, daydilik, boqimandalik sifatida namoyon bo'ladi.



O'smir yoshida uydan chiqib ketish, daydilik qilish, maktabga bormaslik yoki ta'lim olishdan bosh tortish, tajovuzkor axloq, promiskuitet (tartibsiz jinsiy aloqa) graffiti (devorga uyatsiz xarakterdagi rasmlar chizish va yozuvlar yozish), submadaniy deviatsiyalar (sleng, shramlash, tatuirovkalar) birmuncha tarqalgan.

Bolalarda esa uydan qochib ketish, daydilik, maktabga bormaslik, tajovuzkor axloq, g'iybat qilish, yolg'on, o'g'rilik, ta'magirlik (tilanchilik) kabi ko'rinishlarda uchraydi.




- Bugungi kunda o‘smirlar taqdiri masalasi g‘oyat muhim ahamiyat kasb etmoqda. O‘smirlik muammosiga e‘tiborni kuchaytirish zarurligining asosiy sabablari sifatida quyidagilarni ko‘rsatish mumkin:
 1. Fan va texnika rivojlanishi natijasida madaniyat, san‘at va adabiyot, ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoitlarning o‘zgarayotgani;
 2. Ommaviy axborot ko‘lamining kengayishi tufayli o‘smirlar ongliligi darajasining ko‘tarilgani;
 3. O‘g‘il va qizlarning dunyo voqealaridan xabardorligi;
 4. Ularning jismoniy va aqliy kamolotining jadallashgani;
 5. O‘smirlar bilan ishlashda g‘oyaviy-siyosiy, vatanparvarlik va baynalminal tarbiyaga alohida yondashishi zarurligi;
 6. Oshkoralik, ijtimoiy adolat, demokratiya muammolarining ijtimoiy hayotga chuqur kirib borayotgani;








**3.DYURKGEYM VA
MORTONLARNING
DEVIANT XULQ-ATVOR
NAZARIYALARI;**



- DEVIANT XULQ –ATVOR MUAMNMOSNI SOTSILOGIYA FANI DOIORASIDA DASTLAB E.DYURLGEYM MAXSUS O'RGANGAN BO'LSADA, JAMIYATNING ENG QADIMIY MUAMMOLARIDAN BIRI SIFATIDA DEVIANT HOLATLARGA MUNOSABATLAR QADIM DAVRLARDANOQ SHAKLLANIB KELGAN.





DEVIANT XULQ-ATVORNI TAHLIL
QILISHDA R.MERTON ISHLAB CHIQQAN
TA'LIMOT YETAKCHI O'RINDA TURADI.




E.DYURKGEYMING ANOMIYA G'OYASINI
SHAKLLANTIRIB, MERTON DEVIANT
XULQ-ATVORGA QUYIDAGICHA TA'RIF
BERADI





“DEVIANT XULQ-ATVOR JAMIYATDA
E'LN QILIN GAN QADRIUATLAR VA
RASMIY XULQ-ATVOR STANDARTLARI
BILAN AHOLI XULQ-ATVOR MOTIVLARI
HAMDA IMKONIYATLARI MAVJUDN
IMKONIYATLARNING BIR-OBIRIGA MOS
KELMAY QOLISHI NATIJASIDIR.”



**DEVIANT
HOLATLARNI
PAYDO
BO'LISH, SHAK
LLANISHI VA
RIVOJLANISH
UCHUN
MUHIM 3
OMIL:**








Anomiya so'zi fransuz tilidan olingan bo'lib ma'nosi "qonunbuzar, me'yordan o'gishgan'dir.

Drukgyemni anomiya nazariyasi uning tarixiy-evolutsion konsepsiyasing bir qismi sifarida, an'anaviy va zamonaviy jamiyatdagi muholifatga qaratilgan nazariyadir.





Теория
Аномия
социаль
результ
полит
без

Dyurkgeym anomiya tushunchasini birinchi marotaba:

“Ijtimoiy mehnat taqsimoti to’g’risida” asarida

Hamda anomiya so’ziga chuqurroq tushuncha va izoh bergan “xudkushlik” asarida ko’rish mumkin.

- Dyurkgeym fikricha anomiya bu-turli buzilishlar sodir bo'luvchi,dezintegratsiya,qadriyatlar va normalar tizimining parchalanishuvi oqibatida,ijtimoiy jamiyat tartibini kafolatlovchi jamiyat holati.
- Anomiyani paydo bo'lishiga sabab:
- bir guruhning boshqa turli guruh a'zolar manfaatlariga qiziqishi' boshqa imkoniyatlar yaratish va ehtiyojlarni qondirilishi.

BU QUYIDAGI HUQUQBUZARLIKLAR SHAKLIDA O'ZINI NAMOYON BO'LADI:

Noaniqlik, beqarorlik, qarama-qarshi qadriyatlar va ularga normativ talablar qo'yilishi va uning yo'nalishi, qoidalar o'rtasidagi farq, maqsadlarni aniqlash, tartibga soluvchi vositalarga erishish uchun;

Jismoniy shaxlarga kam ta'sir qiluvchi ijtimoiy normalar; ularning zaif samaradorligi, ijtimoiy nazorat sifatida;

Normativ nazoratning vaqtinchalik yoki qisman yo'qligi, masalan, yosh davrlaridagi inqirozda, qadriyatlar tizimi buzilganda, yoki yangi tizimning umumiy sifatda qabul qilinmaganda;



4.Z.FREYD VA E.FROMMLARNING DESTRUKTIV NAZARIYASI





Id:

Instincts



Ego:

Reality



Superego:

Morality



Fromm butun umri davomida o'zini ijosini antropologik (asosida yomon) mavzuga ba'g'ishladi.

O'tmish mutafakkirlari kabi u insoin hayotida qutulib bo'lmas, yomon belgilarni paydo bo'lishini ko'rgan.

Metafizik va axloqiy fonlarni tan olgan holda u klassik falsafada yomonlikni kelib chiqishi ni tushunstirib beradi,.



**ЭРИХ
ФРОММ**

Анатомия человеческой
деструктивности



- “INSON (DESTRUKTIV)TAHRIBO TLARI ANATOMIYASI” KITOBI CHOP ETILGANDA MUALLIF 70 YOSHDA EDI VA BU KITOB BUYUK TADQIQOTCHINING BARCHA ILMIIY ISHLARIGA QARAGANDA ORIGINALROQ BO’LDI.
- MUALLIFNING AYTISHIGA QARAGNDA BU KITOBNI 40 YILDA YOZGAN.

- FROMM O'ZINING KENG BAXSLARGA SABAB BO'LGAN KONSEPSIYASIDA QUYIDAGI SOHALARDAN FOYDALANGAN:
- NEYROFIZIOLOGIYA;
- HAYVONLAR PSIXOLOGIYASI;
- PALEONTOLOGIYA;
- ANTROPOLOGIYA



- **FROMM SHUNDAY FIKRGA KELADI:GUMANISTIK QARASH INSONNI BUTKUL AGRESSIYADAN CHIQRUVCHI TIZIMDIR DEYDI.**
- **SHUNDAN SO'NG Z.FREYD O'ZINING "TAHRIBOTLIK (DESTRUKTIVNOST)"INI TAQDIM ETADI,BIROQ BU KONSEPSIYA KO'PCHILIK OLIMLAR TOMONIDAN FREYD "DESTRUKTIV NAZARIYASI"BO'LIB O'RGANIMADI.**
- **BA'ZI OLIMLAR ESA "DESTRUKTIVLIKNI"UMUMAN "METAPSIXOLOGIK SPEKULYATSIYA" DEB QARAYDILAR;**
- **BOSHQA OLIMLAR TOMONIDAN ESA BU NAZARIYA TANQIDGA UCHRAYDI.**





DELINKVENT XULQ ATVOR VA KRIMINAL HATTI-HARAKATLAR

REJA :

1. DEVIANT XULQ-ATVOR.
2. DELINKVENT XULQ ATVOR
3. KRIMINAL HATTI-HARAKATLAR.



DEVIANT XULQ-ATVOR (OG'MA XULQ-ATVOR)

TUSHUNCHASI.

- Jamiyat taraqqiyotiga xizmat qilmasdan, balki unga to'siq bo'luvchi me'yordan og'ish holatlari ham mavjud bo'lib, sotsiologiyada bu narsa «Deviantlik holatlari», undan tug'iluvchi xulq atvorni «Deviant xulq-atvor» deb nomlanadi. Deviant xulq-atvor jamiyatda o'rnatilgan ahloq me'yorlarga mos kelmaydigan insoniy faoliyat yoki xatti-harakat , ijtimoiy hodisa bo'lib, yolg'onchilik, dangasalik, o'g'irlik, ichkilikbozlik, giyohvandlik, o'z joniga qasd qilish va boshqa ko'plab shu kabi holatlar ushbu xulq-atvor xususiyatlari hisoblanadi.



Deviant so'zi - lotincha "deviantio" so'zidan olingan bo'lib, chekinish, buzilish degan ma'noni anglatadi. Deviant xulq-atvor - mavjud jamiyatda o'rnatilgan ahloq me'yorlariga mos kelmaydigan insoniy faoliyat yoki xatti-harakat , ijtimoiy xodisadir. Ma'lumki, zamonaviy G'arb sotsiologiyasida deviant xulq-atvorga turlicha qarashlar mavjud. Deviant xulq-atvorning eng ko'p tarqalgan va jamiyatda yaqqol namoyon bo'lish turi jinoyatchilik bo'lib, ijtimoiy me'yorning buzilishi sifatida ushbu xodisa fanda juda qadimdan o'rganilgan.



DEVIANT XULQ ATVOR - BU MUAYAN JAMIYATDA QABUL QILINGAN HUQUQ VA AHLOQ ME'YORLARIDAN CHETGA CHIQISHDIR.



- XIX asrning ikkinchi yarmiga kelib. pozitivistik maktab shakllanishi bilan., jinoyatchilikni ham sababiylikda o'rganuvchi ta'limotlar paydo bo'la boshladi. Jumladan, italiyalik psixiatr Ch. Lombrozo Italiya qamoqxonalaridagi 14 ming maxbus ustida tekshirish olib borib, "jinoyatchilar tug'ma bo'lishadi" degan xulosaga kelishadi. Uning shogirdi E.Ferri jinoyatchilik sotsiologiyasi asarida ushbu omilga qo'shimcha ravishda ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy omillarni ham ko'rsatadi. Keyinchalik ushbu ta'limotlar turli tanqidlarga uchragan bo'lsada, hozirgi kungacha ham G'arb sotsiologiyasining ba'zi namoyondalari ushbu ta'limotning u yoki bu yo'nalishlarini rivojlantirib kelishmoqda. Ularning ta'limotlariga ko'ra ichki sekretsia bezlari, aqliy rivojlanganlik darajasi, xromosomalarning tuzilishi va irsiy sabablar jinoyatchilik va shu kabilarni tug'ma yoki biologik omillarni shakllanishiga ta'sir qiladi.



DELINKVENT XULQ ATVOR VA KRIMINAL HATTI-HARAKATLAR.

- Delinkvent xulq atvor - deviantlikning ko'rinishlaridan biri bo'lib, bunday hatti-harakat odatda sho'xlik va ko'ngil xushlik harakatlarida namoyon bo'ladi. Masalan, o'smir ko'p qavatli uy balkonidan turib yo'lovchilarga og'ir predmetlarni uloqtirishi va bundan lazzatlanishi mumkin. Bunday hatti-harakatlar bora-bora deviantlikning og'irroq ko'rinishi kriminallikka o'tib ketishi mumkin



PROFESSIONAL JINOYATCHILIK

Professional jinoyatchilik - jinoiy faoliyat bilan muntazam mashg'ul bo'lish, bu sohada o'ziga yarasha ko'nikmalarni va jinoiy aloqalarni shakllantirish. Bunday jinoyat subyekt tomonidan noqonuniy daromadga ega bo'lishning yagona manbai sifatida qaraladi.



UYUSHGAN JINOYATCHILIK.

Uyushgan jinoyatchilik oddiy biznesga o'xshagan faoliyat bilan bog'liq, biroq uning mazmuni qonunga xilof bo'ladi. Tashkiliy jinoyatchilik - qudratli biznes bo'lib, uni iqtisodiy faoliyatning har qanday yirik sohasi, masalan avtomobil sanoati bilan qiyoslash mumkin. Milliy va lokal jinoiy tashkilotlar ommaviy iste'molchilarga qonun tomonidan man etilgan tovarlar va xizmatlarni taklif etishadi. Ba'zi kriminal tuzilmalar esa transnatsional hisoblanishadi. Uyushgan jinoyatchilik o'z ichiga boshqalar bilan bir qatorda, qimor o'yinlari, fohishabozlik, yirik miqyosdagi o'g'irliklar, va reket kabilarni qamrab oladi.




- O'smirlar va yoshlar jinoyatchiligi. Hozirgi kunda o'smirlar orasida deviant fe'l-atvorni o'sishi dolzarb muammo bo'lib qolmoqda. O'smirlar ko'pincha chetga og'uvchi hatti-harakatlarni ongsiz ravishda, behosdan qiladilar.
- Shuning uchun ularning ko'pchiligi qilgan ishlarini mohiyatini anglab etmaydi, o'z
- xatosini, aybini ko'rmaydi. So'rovlar natijasiga ko'ra, o'smirlarni ko'pchiligi o'z
- jinoiy ishlarini sababini tashqi shart-sharoitlardan qidiradilar, tashqi dunyoni
- ayblaydilar, so'ralganlarni to'rttdan bir qismi o'xshash vaziyatda har biri shunday
- hatti-harakat qilishini aytib o'tganlar



O'smirlarni hatti-harakatida chetga og'ish hollarini asosida sotsial-madaniy ehtiyojlarni rivojlanmaganligi, ma'naviy dunyoni etishmovchiligi yotadi. Shuni ham ta'kidlab o'tish lozimki, yoshlar deviasiyasijamiyatdagi sotsial munosabatlarni aks ettishidir. Chetga og'uvchi fe'l-atvor sabablarini topish, sotsial yordam tizimini tashkil qilish, tushuntirish tarbiya ishlarini olib borish bo'yicha yaxshi o'ylangan, maqsadli yo'naltirilgan ishlar qilish kerak. Inson tarbiyasida eng birinchi va eng muhim ijtimoiy nazorat instituti bu - oiladir. Farzand tarbiyasida va barkamol avlodni shakllantirishdan sog'lom oila muhitini o'rni kattadir. Qolaversa, inson hatti-harakati va xulq-atvori, faoliyatini ta'lim muassasalari, mahalla, mehnat jamoasi, umumdavlat miqyosida esa qonunni himoya qilish organlari (sud, prokuratura, militsiya) ham nazorat qilib boradi va ushbu shaxsga nisbatan ijtimoiy nazorat institutlari vazifasini bajarishadi.



**E.DYURKEGY, R.MERTONLARNING
DEVIANT XULQ ATVOR
TO'G'RISIDAGI NAZARIYALARI**



XVII-XVIII asrlarga kelib, Yevropada jamiyat rivojining kuchayishi, axloq me'yorlarining xristiancha talablari doirasiga sig'may qoldi. XVIII asr mutafakkirlari ijtimoiy me'yor va undan chekinish muammosini yanada chuqurroq tahlil qildilar. Sh.L. Monteskye, J.J. Russo, Ch. Bekkaria, K. Gelvesiy, D. Didro, P. Golbax, Morelli va Sh. Furyelar o'z ilmiy izlanishlarida ijtimoiy me'yorlar, qadriyatlar uchun umumiy bo'lgan qonuniyatlarni topishga intildilar.

XIX asr oxirlarida tabiiy fanlarda erishilgan ilmiy yutuqlar ijtimoiy fanlar taraqqiyotiga ham o'z ta'sirini ko'rsatdi. Xususan, sosiologiyada ijtimoiy me'yordan og'ish holatlarini tushuntiruvchi dastlabki ta'limot, E. Dyurkgeymning «anomiya» g'oyasi edi. E. Dyurkgeym fanga o'zi kiritgan «anomiya» atamasi orhali qonunchilikni, qonunlarni tan olinmasligi va ularga amal qilinmaslikni tushunadi. Bu g'oyani zamonaviy ilm-fanda P. Solis, M. Klaynerd va boshhalar rivojlantirib kelishmoqda.



Amerika sosiologiyasida katta o'rin tutuvchi ta'limotlardan biri E. Saterlendning differensial alohalar ta'limotidir. Bunga ko'ra, har qanday xulq-atvorga, shu jumladan deviant xulq-atvorga ham o'rganiladi, ya'ni mavjud jamiyat a'zolari tomonidan mazkur xulq-atvor boshhalarga o'rgatiladi.

Deviant xulq-atvor muammolarini tahlil qilishda R. Merton ishlab chiqqan ta'limot sosiologiyada yetakchi o'rin tutadi. E. Dyurkgeymning anomiya g'oyasini rivojlantirib, Merton deviant xulq-atvorga quyidagicha ta'rif beradi: «Deviant xulq-atvor jamiyatda e'lon qilingan qadriyatlar va rasmiy xulq-atvor standartlari bilan aholi xulq-atvor motivlari hamda mavjud imkoniyatlarining bir biriga mos kelmay qolishi natijasidir».

Shaxslarda yuz beruvchi deviant holatlarni paydo bo'lishi, shakllanishi va rivojlanishida muhim ahamiyatga ega bo'lgan uchta omilni ko'rsatish mumkin. Bular shaxs xususiyatlari, muammoli holat va ijtimoiy nazorat institutlari. Aynan mana shu omillar shaxsning qanday faoliyat yuritishini belgilab beradi.



SHAXS XUSUSIYATLARINING SHAKLLANISHIDA ASOSAN 3TA OMIL MUHIM AHAMIYAT KASB ETADI, BULAR:

1) Irsiy
omillar;

2)
Psixofiziologik
omillar;

3) Shaxsning
bilim darajasi.



Shuningdek, ijtimoiy og'ishlarning yuz berishiga shaxsning qat'iyatli yoki qat'iyatsizligi, prinsipiiallik yoki prinsipsizligi, qoidalarga bo'ssunish yoki bo'ssunmaslik odatlari, biron bir qarorga kela olish imkoniyati, tashqi ta'sirga qanchalik berilishi, irodasi va boshqa shu kabi psixofiziologik holatlari, mi'jozi ham katta ta'sir ko'rsatadi.

Ijtimoiy buzilishlarni o'rganishda muammoli vaziyat muhim ahamiyat kasb etadi. Muammoli vaziyat shunday holatki, u subyektdan yechimini talab qiladi, uning yechimi ijtimoiy me'yorlard ko'rsatilgan bo'lsada, u yoki bu sabablarga ko'ra, ushbu me'yorlarni qo'llash qiyinroq bo'ladi.

Eng katta muammoli vaziyat ziddiyatli holatlarda, ya'ni turli shaxslar yoki guruhlarning manfaatlari bir-birlariga to'qnash kelganda yuz beradi. Shu o'rinda ta'kidlab o'tish joizki, o'z joniga qasd qilishlarnng 40%i oilaviy ziddiyatlar oqibatida sodir etiladi.



- Ziddiyatli holatlarni yuzaga kelishida baʼzan shaxs xususiyatlari sababchi boʻlsa, baʼzan kichik ijtimoiy guruhlar, oila, mahalla, ishlab chiqarish brigadasi aʼzolari, sinfdoshlar orasidagi salbiy munosabatlar sababchi boʻladi.


Jamiyatda shaxs shakllanishiga taʼsir etuvchi muammoning va uni hal qilish imkoniyatlarining murakkabligi darajasiga koʻra muammoli holatning toʻrtta asosiy holati koʻzga tashlanadi: 1) hech qanaqa muammo yoʻq holat, bunday holat hech qanaqa qaror qabul qilishni talab qilmaydi; 2) muammo bor, biroq qiyinroq yoki osonroq boʻlsada, uning yechimi ham ijtimoiy meʼyorlarda koʻrsatilgan holat; 3) mavjud muammoni subyekt ijtimoiy meʼyorlar doirasida hal qila olmaydigan holat; 4) muammoni hech qanaqasiga hal qilib boʻlmaydigan holat.

Ushbu turlicha holatlar keng ko'lamda biridan ikkinchisiga o'tib turadi

Muammoli holatning mazmuni subyektning individual maqsadlari bilan jamiyat manfaatlari orasidagi maqsadlar va unga erishishning mumkin bo'lgan vositalari orasidagi; faoliyatning kutilayotgan oqibatlari va uning qo'shimcha natijasi (ijobiy yoki salbiy) orasidagi, shuningdek ijtimoiy me'yor talablari va shaxs xususiyatlari orasidagi ziddiyatlarning (ko'pincha o'ylab chiqarilgan) paydo bo'lishidan iboratdir.

Me'yor buzilishlar tizimida ijtimoiy ta'sir jihatlaridan farqlanuvchi qadriyatlarni ajratib tahlil etish o'rinlidir. Ijtimoiy ma'naviy zarar darajalarini pastligi va yuqoriligiga ko'ra deviant holatlarning tavsiflanishi ijtimoiy-huquqiy ahamiyatiga ko'ra qonunlar tizimi hamda jamiyat tomonidan qabul qilingan axloqiy tamoyillar orqali amalga oshiriladi.

Ushbu tavsiflanish bir necha faktorlarga: deviant xulq-atvorga munosabat bildirayotgan kishiga, qonunbuzuvchining shaxsiga, me'yor buzilish yuz bergan konkret holatga, qonunbuzilish va boshqa sharoitlarning o'ziga xosligiga hamda ahamiyatiga bog'liq bo'ladi.



Jamiyat a'zolari shaxsiy nuqtai nazarlarining shakllanishiga, ularning deviant xulq-atvoriga nisbatan ijtimoiy fol munosabatlarini tarkib topishiga tarbiyaviy jarayonlar uchun bevosita mutasaddi shaxslar, tashkilotlar rahbarlarining o'rne va roli kattadir.

Shu boisdan, har qanday holatlarda ham mansabdor shaxslar, turli jamoat tashkilotlari va mehnat jamoalarining rahbarlari, pedagog va tarbiyachilar, qonunni himoya qiluvchi tashkilotlar vakillarining xulq-atvor me'yorlarini buzishi qat'iy qoralanadi.

«Ba'zilarga mumkin - boshhalarga mumkin emas», «qozir yaxshi - ertaga yomon» va shu kabi munosabat holatlarining ikkilamchi fe'l-atvor shaklida, ya'ni parallel standartlar yo'nalishida amal qilishiga izn berish juda xavflidir.



Deviant xulq-atvor turlariga kiruvchi ichkilikbozlik, giyohvandlik, o'z-o'zini o'ldirishlar bilan bog'liq ijtimoiy illatlarning har biri yuzaga kelishi va ijtimoiy oqibatlariga ko'ra mohiyatan farqli jihatlarga egadir.

Birinchi farq, ijtimoiy zararli odatlarning uzoq davom etishi deviant xulqi turmush tarzining uzviy bo'lagiga aylanib ketishidan iborat bo'ladi. Doimiy oilaviy kelishmovchiliklar, oila va atrof-muhitdan norozilik, ishdagi tushunmovchiliklar va hokazolar - bularning barchasi subyekt ruhiyatini jarohatlaydi hamda u mavjud vaziyatni o'zgartirishga urinadi. Bu o'rinda ijtimoiy institutlardagi kamchiliklar, shu jumladan ziddiyatlar rivojlanishining oldini oluvchi va ularga qarshi kurashuvchi ijtimoiy nazorat tizimlari ham salbiy rol o'ynaydi.

Bularning ikkinchi farqli jiqati yuqoridagi holatlarni hal qilishning ma'lum qiyinchiliklarga egaligidir. Ma'lumki, har qanday holatda ham, ko'p «qurbon» berib bo'lsada, to'g'ri yechimga erishish mumkin. Lekin hamma gap shundaki, subyekt «qurbon» bera oladimi: xotini (yoki eri) bilan ajralib keta oladimi, yangi kasbga ega bo'la oladimi yoki yo'qmi. Qat'iy qarorga kela olmay, ko'pincha subyekt «o'rinbosuvchi» vositalarga, ichkilik va giyohvand moddalarga murojaat etadi.

Bunaqa holatlarning keyingi farqi shundaki, ko'pincha subyekt ularni hal qilishning noto'g'ri yo'llarini tanlaydi.

Oilaviy va ishdagi janjallar odatga aylanib qolganda, bundan «qutulishning» noto'g'ri xayoliy yo'llari, ichkilik, giyohvand vositalar va hokazolarga murojaat etiladi.

Biroq bu yo'l ziddiyatning chuqurlashuviga va turmush tarzini zararlantiruvchi faktorga olib keladi.

Shaxsning ijtimoiyizasiya jarayoni jamiyatning va atrofdagi odamlarning qat'iy nazorati ostida amalga oshadi.

Insonlar bolalarni faqat o'rgatibgina qolmasdan, xulq-atvor me'yoriy talablarining to'g'ri bajarilishini nazorat etishadi va bu bilan ijtimoiy nazorat vakili (agenti) vazifasini bajarishadi.

Agar nazoratni yakka shaxs amalga oshirsa, bu individual tavsifga ega bo'ladi va agar butun bir jamoa, oila, do'stlar, maktab, mahalla (qo'ni-qo'shnilar) tomonidan amalga oshirilsa, ijtimoiy tavsifga ega bo'ladi hamda ijtimoiy nazorat deyiladi.



Ўсмирлар ўртасидаги суицид муаммоси

(Мактаб ММИБДЎ лари,
синф раҳбар ва ота-оналар учун эслатмалар)
Ш.Мустафаева



*Мазкур эслатмалар фақат хизмат доирасида
фойдаланилади!*

Суицидга даҳлдор бўлган маълумотларни
ўсмирларлар орасида муҳокама қилиш
таъқиқланади. Чунки суициднинг кўпайишига
миш-мишлар замин яратади.

**Суицид содир этилган ҳудудда энг аввало,
миш-мишлар олди олиниши лозим!**



Каттақўрғон шаҳридаги статистик маълумотлар
2016-йилда жами 18 нафар ўсмир суицидни амалга оширган бўлса, шулардан 3 нафари мактаб ўқувчиларидир ўқувчиларидир. 2017-йилнинг 11 ойида 16 нафар вояга етмаганлардан 5 нафари мактаб ўқувчиларини ташкил қилди. Эътиборли жиҳати шуки, 14-24 ёшдаги шахслар ўртасида сўнгги 10 йилда суицид ҳолатлари кескин ошди. Мутахассисларнинг фикрига кўра, суицидал хулқ-атворга эга бўлган шахсларнинг **10% гина суицидни амалга ошириш ниятида бўладилар, 90% ўсмирда эса атрофдагиларнинг эътиборини жалб қилиш ёки ўз яқинларини қўрқитиб, мақсадга эришиш нияти устунлик қилади.** -





Вояга етмаганлар ўртасида содир этилган суицид ҳолатларининг сабаблари таҳлили шуни кўрсатмоқдаки, 62% ҳолатда ўсмирлар томонидан содир этилган суицидда оиладаги низолар ва носоглом муҳит, катталар томонидан содир этилган тазйиқ, айрим педагогларнинг лоқайдлиги сабаб бўлган.



Суицид (лот. “suicaedere”, “sui”-мен; “caedere”-ўзимни ўлдираман)– онгли равишда ўз жонига қасд қилиш, деган маънони англатади.

Суицидал хулқ-атвор ва **суицид** тушунчалари орасида маълум бир тафовут бор. Яъни, суицидал хулқ-атвор кенгрок тушунчага эга бўлиб, ўз жонига қасд қилиш харакатлари, кўринишларини ифодалайди.

Суицидни амалга оширмакчи бўлган ўсмир аксариятда **стресс чуқур тушкунлик** ҳолатида бўлиши, “**боши берк кўча**”га кириб қолганлиги, муаммолари кўплиги билан ажралиб туради.

10-13 ёш оралиғида суицид нисбатан камроқ учрайди, 14-16 ёш оралиғида эса ўз максимумига етади.



Тайёрланаётган суицид белгилари

Суицид эҳтимолини бир неча белгилар уйғунлиги ифода этади:

1. Ўз юмушларини тартибга келтириш — ўзи учун қимматли бўлган нарсаларни тарқатиш. Тозаликка эътибор бериш, сўнгги тайёргарликларни амалга ошириш.
2. Розилик сўраш.
3. Ташқи қониқиш – қувватга тўлиш. Агар суицидни амалга ошириш нияти, режаси, усули танланган бўлса, одам бироз тинчланади, ташқи қониқиш юзага келади. Бироқ бу ҳолат чуқур тушкунликдан ҳам хавфлироқ ҳисобланади, чунки кучга тўлиш, фикрлардан халос бўлиш, кутилмаган ҳаракатларни юзага келтириши мумкин.
4. Хат қолдириш (хатлар, кундаликлар).
5. Хақоратлар ёки кўрқитишлар.
6. Жахли тез ўсмирларда - асабийлик.



Ўсмирда намоён бўладиган хавfli ўзгаришлар:



1. Ўзлаштиришнинг кескин пасайиши, ўқиш жараёни ва баҳоларга бефарқли



2. Куннинг кўп қисмида тушкун кайфиятнинг устун бўлиши, ҳиссиётларнинг сустлиги, асабийлик.



3. Хулқ-атворнинг кескин ўзгариши. Масалан, ўсмир яқинларидан узоқлашмоқда, гаплашишни истамай қолди, ташқи кўринишига бефарқ бўлмоқда, қизиқишлари сусайиб қолди, дўстларидан ўзини олиб қочмоқда

Ўсмирда намоён бўладиган ҳавфли

ўзгаришлар:

4. Яқин қариндошлари ёки дўслари орасида суициднинг амалга оширилган ҳолати.

5. Ўсмир бевосита ёки билвосита ўз жонига қасд қилиш нияти борлиги ҳақида сўзламоқда. Яшашни истамаслик ҳақида гапириш - кўп ҳолларда ўзига ва ўз муаммоларига эътибор қаратишни ифодалайди. **Эътиборсизликдан азият чекаётган ўсмир, кўп ҳолларда, суицидни амалга оширишни сўнгги нажот, деб билади.**

6. Ўзи ва соғлиги билан нима бўлишига эътибор бермаслик.



СУИЦИД ҲАҚИДА НИМАЛАРНИ БИЛИШ ЛОЗИМ ?



Эътибор беринг, хавфли вазият!

- Иштаҳанинг йўқлиги ёки овқатдан ўзини тўхтата олмаслик, уйқусизлик ёки кўп ухлаш;
- ички касалликлардан тез-тез шикоят қилиш (қорин ва бош оғриқлари, доимий толиқиш);
- ўз ташқи кўринишига эътиборсизлик;
- доимий равишда ёлғизликни, кераксизлигини, айбдорлик сезиш;



- зерикиш, аввал қониқтирадиган машғулотлардан қониқмаслик;
- мулоқотдан қочиш, “яккаликка” интилиш ;
- иш унумдорлигини сусайиши, диққатнинг турғун эмаслиги;
- ўлим тўғрисидаги фикрларнинг кўпайиши;
- келажак билан боғлиқ фикрларнинг йўқлиги;
- арзимас нарсалардан тез асабийлашиб кетиш –



Агар фарзандингизда шу каби ҳолатлар сезилса, унда суицидал мойиллик кучайган бўлади!

Суицидал хулқ-атворга мойил шахслар гуруҳи

Отасиз тарбияланаётганлар; оилада онасининг устун туриш ҳолатлари.



Жисмоний нуқсонга эга бўлганлар

Алкогол кўп истеъмол қилинадиган оилада тарбияланаётганлар



Яккаланиш ва камситиш ҳолатларида бўлганлар

Наслида суицидни амалга оширганлар бўлса



Ички (соматик) касалликлар билан оғриганлар

Руҳий тушкунликка тушганлар



«СУИЦИД»

MyShared



Суицидал хулқ-атворнинг даврийлиги


Суицидни олдини олишда шахснинг суицидал ҳолатларга тушиш фаоллигини аниқлаш жуда мухим.


Бундай фаоллик қуйидаги даврларда кучайиб боради:

- баҳор ва куз фасллари даврида, яъни
- **Январь, февраль, март. Сентябрь-ноябрь.**
- **Май. Битирув кечалари арафасида.**
- **эрта тонг, оқшом ва тун пайтларида;**
- **ой тўлган ва янги чиққан даврда;**
- **14 – 24 ёш даврида;**
- **жамоада ва оиладаги чуқур маънавий руҳий ҳолатларда.**



СУИЦИДНИ КЕЛТИРИБ ЧИҚАРУВЧИ АСОСИЙ ОМИЛЛАР...





Биринчи омил - оиладаги келишмовчиликлар, оиладаги тазъийқ, оиладаги носоғлом мухит (62% амалга оширилаётган суицид холатлари бевосита оила муаммолари билан боғлиқ),

Иккинчи омил - мактаб билан боғлиқ муаммолар, айрим педагогларнинг лоқайдлиги,

Учинчи омилда - ўсмирнинг тенгдошлари билан бўлган муаммолари, асосан қарама-қарши жинс вакиллари билан бўлган шахслараро муносабатлардаги келишмовчиликлар акс этмоқда.

Оиладаги келишмовчиликлар, оиладаги тазъйиқ, оиладаги носоғлом мухит



Оилавий низоларда кекса авлоднинг қарашларига қаршилик кўрсатиш, улардан воз кечишга ҳаракат қилиш намоён бўлади; **оилада оғир касаллик билан ётган инсон бўлса ҳам, оиладаги мухит таранглиги билан ажралиб туради.** Яқин инсоннинг ўлими ўсмирда йўқотиш хиссини юзага келтириб, ҳаётга қизиқишни сусайтириши мумкин. **Ичкиликка берилган оилада низоли вазиятнинг тез-тез рўй бериши суицидни ривожлантирувчи омилга айланиши мумкин.**



Мактабдаги муаммолар

Аксарият муаммолар мактабдаги ўзлаштириш, ўқитувчилар билан келишмовчиликларда намоён бўлади.

Ўсмирларнинг 70% суицидга сабаб бўлган омил сифатида мактабдаги кичик тўқнашувларни айтишган. *Бироқ, психологик таҳлил шуни кўрсатмоқда-ки, суицидга сабаб - оиладаги носозлом муҳит, яъни ота-она ва бола муносабатлари бузилганлиги бўлган, бола кўпроқ вақтини мактабда ўтказганлиги сабабли, мактабдаги тўқнашув -, “сабр косасидаги оҳирги томчи” родини ўйнаган.*



Тенгдошлари ўртасидаги муаммолар

Болада ўлим ҳаётнинг тугаши билан ифодаланмайди, у “ҳамма нарсани қайтариш мумкин”, “мен тирик қоламан”, деб фикрлайди. Ўлимни тўғри англаш ва тушуниш 18 ёшда бошланади.



Оиладаги носоглом муҳит болани ўз тенгдошларидан бирига эмоционал жихатдан қаттиқ боғланиб қолишига замин яратади. Сирларини унга айтиш, оиладаги ҳолатни муҳокама қилиш – тобеликни кучайтиради. Бу ўзига хос компенсатор механизм сифатида ифодаланади. Тенгдошлар ўртасидаги юзага келиши мумкин бўлган тушунмовчилик эса, суицидга замин яратади.

**Қандай қилиб
суицидни олдини
олиш мумкин?**



Боланинг ҳар бир суицидал ҳаракатига катталар жавобгардир!

Суицид тўғрисидаги ҳар қандай фикрга ўта эҳтиёткорлик билан ёндашиш зарур. Ёлғизлик, чорасизлик хисси эътибордан четда қолмаслиги суицидни олдини олишга кўмаклашади.

Ўсмирларда тушкунликни олдини олиш суицид профилактикасини таъминлайди. Тушкунлик профилактикасида ота-оналар муҳим аҳамият касб этади. Болада тушкунлик аломатларининг пайдо бўлиши билан, дарҳол унга шу ҳолатдан чиқиб кетишга кўмаклашиш зарур!



БИРИНЧИДАН, бола билан суҳбат қилиш, унинг аҳволи билан қизиқиш, келажак ҳақида гапириб, ҳамкорликда режалар тузиш даркор. **Болани қўллаб-қувватлаб, ўзига, келажакка ишончли шакллантириш зарур, ўз мақсадига эриша олишига умид бериш керак.**



Болани ҳеч қачон “қовоғи солиқлигида”, “фаросатсизлигида” айбланманг, ундан кўра, унинг шахсий фазилатларини янада кучлироқ қилиб кўрсатишга урининг.

Болани чакқон, аълочи, омадли тенгдошлари билан ҳеч қачон таққосланманг. Бу таққослашлар у сиз ҳам паст бўлган ўз-ўзини қадрлаш хиссини янада пасайтириб юборади.

Ундан кўра, кечаги ҳолати билан бугунги ҳолатини солиштиринг, анча ижобий ўзгаришларга эга бўлаётганига унда ишонч ҳосил қилинг.



Иккинчидан, бола билан астойдил шуғулланинг, янгиликка интилинг, у билан янги машғулотлар, аввал қилмаган ишларни биргаликда бажаришга уриниб кўринг, ***бола ўзининг кераклигини, сизнинг меҳрингизни туйиши зарур.*** Бир хилликда кечаётган турмуш тарзингизни озгина бўлса ҳам ўзгартиришга ҳаракат қилинг



*Учинчидан, ўсмир катъий кун тартибига риоя қилиши лозим.
Вақтида дам олиши, яхши овқатланиши, ҳаракатли
машқларни бажаришига алоҳида эътибор беринг.*
Тушкунлик-психофизиологик жараен эканлигини унутманг,
бундай ҳолатда ўсмирнинг жисмоний ҳолатига эътибор беринг.

Руҳий тушкунлик суицидга замин яратишини
УНУТМАНГ!



Тўртинчидан, психолог ёки психотерапевт мутахассисга мурожаат этинг!

Фарзандингизни тиббий кўриқдан ўтказиб, камқонлигини, эндокрин касалликларини профилактикасини қилинг.

Ички касалликлар суицидга олиб келиши мумкин!

Ўз вақтида олиб борилган муолажалар фарзандингизни сақлаб қолади!



Агар фарзандингизни **яхши фарзанд** бўлишини истасангиз-кун давомида **3 маротаба бағрингизга босиб, меҳрингизни беринг!**

Агар фарзандингизни **яхши инсон** бўлишини истасангиз-кун давомида **6 маротаба бағрингизга босиб, меҳрингизни беринг!**

Агар фарзандингизни **комил инсон** бўлишини истасангиз-кун давомида **12 маротаба бағрингизга босиб, меҳрингизни беринг!**



**Фарзандингиз келажаги Сизнинг
кўлингизда!**

Savol va topshiriqlar:

1. Mehnat shartnomasi qancha muddatga tuzilishi mumkin?
2. Qaysi yoshdan ishga qabul qilishga yo‘l qo‘yiladi?
3. Xodimga mehnat daftarchasi qachon ochilishi kerak?
4. Ishga qabul qilish to‘g‘risida buyruq chiqarish uchun nima asos bo‘ladi?
5. Xodim o‘zining ishdan bo‘shashi to‘g‘risida ma‘muriyatni necha kun oldin ogohlantirishi kerak?
6. Mehnat shartnomasi qaysi hollarda bekor qilinishi mumkin?
7. Ishdan bo‘shagan xodimga mehnat daftarchasi va buyruqning ko‘chirma nusxasi qachon beriladi?